

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI
MAGISTRATURA BO'LIMI**

KARIMOV ABDURAZZOQ ABDUVALIYEVICH

**XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BANK BILAN MUOMALALAR
HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH**

Mutaxassislik: 5A230901 – “Buxgalteriya hisobi (real sektor)”bo'yicha

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: dots. D. Norbekov

Toshkent – 2018

**Dissertatsiya Toshkent Moliya instituti “Buxgalteriya hisobi(real sektorlar)
bo’yicha” kafedrasida bajarilgan.**

Ilmiy rahbar _____ **dots.D.E.Norbekov**

Kafedra mudiri _____ **i.f.d., prof.A.A.Karimov**

Magistratura bo’limi

boshlig’i _____ **i.f.n., dots. D.U.Ortiqov**

MUNDARIJA

KIRISH	3
I bob. IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA BANK BILAN MUOMALALAR HISOBINING NAZARIY- USLUBIY ASOSLAR.	8
1.1. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida pul mablag'larini hisobga olishning zarurligi va ahamiyati	8
1.2. Bank hisobvaraqlarida amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob- kitoblar va uning shakllari	12
1.3. Pul mablag'lari harakati hisobining vazifalari	23
I bob bo'yicha xulosa.	30
II bob. KORXONANING BANKDAGI SCHYOTLARI BO'YICHA MUOMALALARI HISOBINI TASHKIL QILISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	32
2.1. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning bank hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari harakati hisobini yuritish tartibi	32
2.2. Pul mablag'lari harakati hisobini takomillashtirish	45
II bob bo'yicha xulosa.	51
III bob. BANKDAGI SCHYOTLAR BO'YICHA MUOMALALAR AUDITINI TASHKIL QILISH HAMDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	53
3.1. Bankdagi schyotlar bo'yicha muomalalar auditining xususiyatlari ..	53
3.2. Bankdagi schyotlar bo'yicha muomalalar auditini takomillashtirish masalalari.	58
III bob bo'yicha xulosa.	64
XULOSA VA TAKLIFLAR	65
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	68

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va ubing dolzarbligi. Mustaqil Respublikamizda yangi iqtisodiy tizim – bozor iqtisodiyotiga o'tishning yuqori bosqichiga kelmoqda. Bu tizim sharoitida turli mulk shakllarining vujudga kelishi, davlat mulkining xususiylashtirilishi o'tish jarayoniga xos xususiyatdir.

Oxirgi yillarda O'zbekiston oldingidan tubdan farq qiluvchi yangi iqtisodiy munosabatlarga asoslangan holda iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichlariga o'tib bormoqda. Bozor iqtisodi asosida tovar-pul munosabatlari yotadi. Tovarlarning munosabatlari - tovar ishlab-chiqarish, tovarlarni ayirbosh qilish va pul muomalasiga xos munosabatlarining yaxlitligini ifoda qiladi. Bozor iqtisodi erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan, iqtisodiy monopolizmni inkor qiluvchi, ijtimoiy taraqqiyotga, aholini ijtimoiy muhofaza qilish yo'nalishiga ega bo'lgan va boshqarilib boriladigan iqtisoddir.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida bozor munosabatlarini qaror toptirishning iqtisodiy tadbirlaridan biri pul tizimida chuqur o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo qildi. Bozor munosabatlariga o'tib borish munosabati bilan iqtisodiy kategoriya sifatida pulning mohiyati va ahamiyatiga boshqacha yondashish zarur bo'lmoqda.

Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish maqsadida ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash; bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish ustivor vazifalardan biri sifatida belgilab olingan.¹

Shu sababli, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bankdagi schyotlari bo'yicha

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risi"gi PF-4947-son Farmoni

muomalalari hisobini to'g'ri tashkil qilish, naqd pulsiz hisob-kitoblarni to'g'ri yuritish, ularning auditorlik tekshiruvini haqqoniy o'tkazish, shuningdek tegishli ilmiy xulosalar chiqarish va tavsiyalarni ishlab chiqish o'ta dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqot ishinig obykti va predmeti. Tadqiqot ishining predmeti bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda pul mablag'lari harakati hisobi va auditini tashkil qilishning uslubiy asoslari, boshlang'ich hisob hujjatlarini takomillashtirish, buxgalteriya hisobi va auditni milliy hamda xalqaro standartlarga moslashtirish hisoblanadi.

Tadqiqotning obykti sifatida yig'ma hisob va hisobot ma'lumotlari, ulardagi buxgalteriya hisobi va auditning mavjud uslubiyoti va tashkil etilishi, auditorlik xulosalari va hisobotlaridan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Statistika qo'mitasi ma'lumotlari, shu sohadagi ilmiy ishlarning natijalari, maxsus adabiyotlar hamda statistik manbalardan foydalanildi.

Tadqiqot ishining maqsad va vazifalari korxonalarda buxgalteriya hisobi va auditni tashkil qilish, bankdagi schyotlari bo'yicha muomalalari hisobi va auditini bozor iqtisodiyoti talablariga mos uslubiy hamda tashkiliy tamoyillarini yaratishdan iboratdir. Ushbu maqsadga muvofiq ilmiy ishning asosiy vazifalari qilib quyidagilar belgilandi:

- iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida korxonalar faoliyatida buxgalteriya hisobi va hisobotining uslubiy asoslarini yaratish;
- bank hisobvaraqlarida amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitoblar va uning shakllarini yoritish;
- pul mablag'lari harakati hisobi, auditining vazifalarini yoritish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektning bank hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari harakati hisobini yuritish tartibini yoritish;
- bankdagi schyotlar bo'yicha muomalalar auditining xususiyatlari yoritish;
- bankdagi schyotlar bo'yicha muomalalar auditini takomillashtirish masalalari.

Ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

- iqtisodiyotni chuqur diversifikatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank bilan muomalalari hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari tahlil qilindi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank bilan muomalalari hisobining o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etildi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank bilan muomalalari hisobini tashkil etish metodikasi o'rganildi va fikr-mulohazalar bildirildi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank bilan muomalalari hisobi yuzaga keladigan amaliy-uslubiy kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan bir qancha amaliy yechimlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan bank xizmat turlarining soni yildan yilga oshib bormoqda. Shu boisdan, xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank bilan muomalalari hisobi bilan bog'liq mavjud muammolar bugungi kunda ko'pchilik iqtisodchi olimlar hamda mutaxassislarning diqqat markazida turibdi. Ushbu ilmiy tadqiqotning ham asosiy masalalaridan biri bo'lib aynan xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank bilan muomalalari hisobining to'g'ri yuritilishini qay darajada talabga javob berishini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi(tahlili). Yuqorida ta'kidlab o'tilgan masalalarning obyektiv yechimini ishlab chiqishda iqtisodchi olimlarimizning o'z fikr va mulohazalari bayon qilingan ilmiy maqola, risola hamda ilmiy asarlari chop qilingan.

Xususan, O'zbekistonlik olimlardan S.Qodirxonov, A.Sotvoldiev, O.Bobojonov, N.Jo'raev, A.Jumanov, A.Ibragimov, A.Pardaev, Z.Mamatov, B.Xasanov, I.Abdukarimov, M.Pardaev, A.Vahobov, I.Ibrohimov, R.Do'smuratov A.Axmadjanov, M. Raximovlarning ham ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan.

Shuningdek, xorijlik iqtisodchilar G.V. Savitskaya, I.A. Napetova, E.A. Soboleva, A.N. Bagatko, A.A.Bakaev, M.I.Kuter, N.P.Kondrakov, S.A.Nikolaeva,

N.N.Seleznova, L.R.Smirnova, A.D.Sheremet kabi iqtisodchi olimlarning maxsus darslik va o'quv qo'llanmalarida ham o'z aksini topgan. Albatta, bu olimlarning ilmiy va uslubiy ishlari ham nazariy ham amaliy ahamiyatga ega.²

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Dissertatsiyada kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, saralash, taqqoslash, induktsiya va deduktsiya hamda boshqa iqtisodiy-matematik usullar qo'llanildi. Tadqiqot ishi to'liq va aniq yoritilishi uchun yuqoridagi keltirilgan usullar o'zining ijobiy samarasini berdi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Korxonalar bankdagi schyotlari muomalalar hisobi bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarni joriy etilish buxgalteriya hisobini hamda auditorlik xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshishiga, auditorlar ish sifatini yaxshilashga, ular xatarini pasaytirishga imkoniyat yaratadi. Tadqiqot ishining nazariy ahamiyati keltirilgan nazariy ma'lumotlarni moliyaviy hisob, audit fanidan dars o'tish jarayonida hamda o'quv adabiyotlarini yangi avlodini yaratishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiyada keltirilgan takliflar va tavsiyalarni amaliyotda qo'llash respublikamiz korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari auditini takomillashtirish imkonini beradi. Ilmiy ishda bildirilgan takliflar va tavsiyalarni auditorlik tekshiruvlarini tashkil qilishda hamda mavzuga oid me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

² Do'smurotov R.D. Audit asoslari. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2003.-612 b., Mamatov Z.T. Audit: muammolar va rivojlantirish istiqbollari. TMI 2004y. 348 b., Do'smurotov R.D. Audit. O'quv qo'llanma (I qism). R.D. Do'smurotov, Sh. Fayziyev. - T.: " Iqtisod-moliya", 2008. - 178 s., Karimov A. va boshq. Audit. O'quv-uslubiy qo'llanma. - T.: Iqtisod- Moliya. 2008. - 180 b., Qodirxonov S.B. Sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi. T.: «O'qituvchi», 1993 y., Karimov A.A. va boshqalar. Buxgalteriya hisobi.T.: Sharq 2008, Babajanov A. Жуманиязов К.К., Финансовый учет: Учебное пособие. –Т.: ТГЭУ, 2001 г., Кутер М.И. Теория бухгалтерского учёта учебник. -М.: Ф и С, 2004 г., Кондраков Н.Г. Бухгалтерский учёт учебник . -М.: ИНФРА, 2004 г., Савицкая, Г. В. Методика комплексного анализа хозяйственной деятельности: учебное пособие / Г. В. Савицкая. – Москва: Инфра-М, 2012. – 383 с., Напетова И.А. Анализ финансово хозяйственной деятельности: Учеб. метод. пособ. - М.: Форум - Инфра 2004г. - 128 с. Пардаев М.Қ. Иқтисодий таҳлилнинг назарий ва методологик муаммолари: Дис. ... икт. фан. д-ри. – С., 2001.; Каримов Н.Ф. Тижорат банкларида ички аудитни ташкил қилиш ва уни услубий тақомиллаштириш муаммолари: Дис. автореф. ... икт. фан. д-ри. – Т.: 2007.; Хасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби ва ички аудит методологиясини тақомиллаштириш: Дис. автореф. ... икт. фан. д-ри. – Т., 2004; Маматов З.Т. Хўжалик юритувчи субъектларда молиявий ҳисобот аудитини тақомиллаштириш масалалари: Дис. автореф. ... икт. фан. д-ри. – Т., 2005.; Ибрагимов А.К. Ишлаб чиқариш харажатлари ҳисоби, аудити ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари таннархини аниқлашни тақомиллаштириш: Дис. ... икт. фан. д-ри. – Т., 2002.; Дусмуратов Р.Д. Ўзбекистонда аудиторлик фаолиятининг шаклланиши ва унинг услубий тақомиллаштириш: Дис. ... икт. фан. д-ри. – Т., 2008.; Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудитни тақомиллаштиришнинг асосий йўналишлари: Дис. ... икт. фан. д-ри. – Т., 2009.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 7 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar hamda ilmiy maqola, tezlardan iborat bo'lib ___ betni tashkil etadi.

I BOB. IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA BANK BILAN MUOMALALAR HISOBINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLAR

1.1. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida pul mablag'larini hisobga olishning zarurligi va ahamiyati

Ishlab chiqarish usulining o'zgarishi jamiyat tuzumining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, xo'jalikka rahbarlik va nazorat qilish usulini o'zgartirishga, shuningdek, xo'jalik hisobining o'zgarishiga ham olib keladi. Har bir ijtimoiy tuzumda xo'jalik hisobi o'zining maqsadi, vazifalari va tashkil qilish shakllariga ega. Shunday qilib, kishilik jamiyatining rivojlanishi xo'jalik hisobining o'zgarishi va mazmunini belgilaydi. Uning mazmuni u qanday ijtimoiy tuzumda qo'llanilayotgan bo'lsa, o'sha tuzum xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Hozirda mulkiy birlik va munosabatlarning shunday tizimini shakllantirish lozimki, bu harakat avvalo faoliyat yakunida yuqori unum va natijaviylikni, butlik va manfaat uyg'unligini, eng muhimi bozor to'kin-sochinligi va jamiyatimiz farovonligini ta'minlasin. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida ushbu jihatga bosh masala sifatida qarash lozim.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng prezidentimiz boshchiligidagi respublikaning o'ziga xos bo'lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modeli ishlab chiqildi. Ushbu rivojlanish modeli asosida O'zbekistonda yangi iqtisodiy tizim - bozor iqtisodiyotiga o'tilmoqda. Turli-tuman mulk shakllarining paydo bo'lishi, davlat mulkining xususiylashtirilishi, hissadorlik jamiyatlari, hamkorlikdagi qo'shma korxonalar, kichik korxonalarning vujudga kelishi o'tish jarayoniga xos xususiyatlardandir. Bunday sharoitda tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida haqiqiy raqobat hukm surishiga, korxonalar mustaqil ravishda chet el korxonalari bilan aloqa o'rnatishga, mahsulot sotishning yangi zamonaviy usullarini rivojlantirishga, tijorat banklari, xususiy banklar, birjalar, kim oshdi savdolari faoliyatini rivojlantirishga imkoniyatlar paydo bo'la boshladi.

Ma'lumki, amal qilib kelingan hisob tizimi, uning uslubiy asosi va bosh vazifasi bevosita, mulkiy butlik va uni doimiy nazorat qilib turish qoidasi asosida

qurilgan edi. Natijada uzoq yillar davomida hisob tizimida bir xillik, umumiylik va muomalalar mazmunining takroriyligi amal qilib keldi. Hisob tizimining bugungi mazmuni, kuzatuv o'rne va vazifalari esa ancha boyidi. Hisob tizimida eng katta o'zgarish shu bo'ldiki, amalda milliy hisob tizimini yaratishga kirishildi.

Respublikamiz korxonalarida hisob va hisobot ishlarini halqaro standartlarga moslashtirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa oxirgi 4-5 yil ichida respublikamiz korxona va tashkilotlarida yuritiladigan buxgalteriya hisobini yuritish uslubiyatida, uning tashkil qilinishida hamda ishlab chiqarish xarajatlari hisobini yuritishda qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bir tomondan moliyaviy qo'yilmalar va nomoddiy aktivlarning yangi-yangi turlari paydo bo'ldi, ikkinchi tomondan, mahsulot tannarxi tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Shu bilan birga xo'jalik sub'ektlarining buxgalteriya hisobini yuritishdagi imkoniyatlari kengaydi. Ular amaldagi qonun-qoidalar va xo'jalik yuritish xususiyatlari asosida o'zlarida buxgalteriya hisobini yuritish texnikasi, tashkil qilish shakllari hamda aniq usullarini mustaqil ishlab chiqishlari mumkin bo'ldi. Ishlab chiqarish zahiralarini baholash va mahsulot tannarxini aniqlash usullarini o'zlari tanlash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Bulardan tashqari buxgalteriya hisobotini tuzish uslubiyatida va hisobot shakllarida ham bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari holatiga, iqtisodiy-moliyaviy holatiga, pul mablag'lari harakatiga e'tibor kuchaytirildi.

Buxgalteriya hisoboti tarkibidagi hamda buxgalteriya hisobi uslubiyatidagi, uni tashkil qilishdagi yuqoridagi sanab o'tilgan va boshqa o'zgarishlar ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borish zaruriyatini tug'dirmoqda.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq xo'jalik yuritishning turli mulkchilikka hamda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga moslashish jarayoni jadallik bilan amalga oshirila boshlandi.

Davlat mulkining markazlashgan shakli hukmronlik qilgan sharoitdagi boshqarish tizimidan mutlaqo yangi, jahon standartlariga mos raqobatbardosh, sifatli mahsulot bilan tashqi bozorga chiqish imkoniyatiga ega bo'lgan korxonalar

uchun yangi hisob siyosati, shu jumladan, xarajatlarning bozor talablariga to'g'ri keladigan hisob usullarini yaratish hamda korxonalarda pul mablag'lari harakatini optimal ravishda tashkil etish o'ta dolzarb bo'lib qoldi.

Turli mulkchilik shakllarida faoliyat yuritayotgan korxonalarda xo'jalik muomalalarini hisobi, nazorati va tahlilini tashkil etishda O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomi, «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari» va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar muhim rol o'ynaydi.

«Buxgalteriya hisobi - bu kundalik va umumiy ma'lumotlar olish maqsadida ayrim korxona, hissadorlik jamiyati, muassasa, tashkilot va boshqalarning xo'jalik faoliyatini uzluksiz ravishda kuzatish va nazorat qilish tizimidan iboratdir».

Korxonalarda buxgalteriya hisobi quyidagi asosiy hujjatlar asosida, ya'ni O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 13-apreldagi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuniga (yangi tahriri) asosan tashkil etiladi.

Korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishda, avvalo, tezkorlik, aniqlik, uslubiylik, tejamkorlik qoidalariga tayanmoq lozim. Shuningdek, xalq xo'jaligida tarmoq tizimiga kiruvchi korxonalarda ham hisob tizimi, avvalo, hisob ob'ektiga kiruvchi har bitta birlikni, shu jumladan pul mablag'lari va ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini samarali boshqarish qoidasida tashkil etilmog'i va yuritilmog'i lozim.

Korxonalarda buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish va yuritish, mulkning ahvoli va harakatini, shuningdek, huquq va majburiyatlarning holatini to'liq va ishonchli tarzda aks ettirish orqali boshqaruvning samarali shaklini ta'minlash maqsadida yo'lga qo'yila boriladi.

Uning huquqiy asosi bevosita O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuniga asosan yangidan ishlab chiqilgan hisobvaraqlar

rejasi asosida, buxgalteriya hisobining milliy standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan. Ya'ni, buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish va yuritishning barcha jihatlarini ushbu qonun hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan.

Buxgalteriya hisobi uchun mavjud bo'lgan tizim, aniq xo'jalik sub'ektiga moliyaviy axborotlarni qayta ishlab, solishtirib o'rgangan holda uzatish demakdir. Bu axborotlar foydalanuvchilarga korxonaning xo'jalik faoliyatini boshqarish uchun cheklangan resurslardan samarali foydalanishda muqobil variantlarni tanlash imkoniyatini beruvchi qaror qabul qilishga imkoniyat beradi.

Korxonalarning xo'jalik faoliyatini boshqarishda foydalaniladigan manbalar qatoriga pul mablag'larining harakati to'g'risidagi axborotlar ham kiradi. Xo'jalik faoliyatini samarali boshqarishda pul mablag'lari oqimi to'g'risidagi axborotlar muhim rol o'ynaydi. Pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlar barcha darajadagi tadbirkorlar tomonidan xalqaro amaliyotda keng qo'llanilmoqda, u korxonalar ma'muriyatiga ham, tashqi foydalanuvchilarga ham zarurdir. Korxona menejerlari mazkur ma'lumotlardan foydalanib, korxona likvidliligini o'rganishda, dividendlarni belgilashda, ish haqi ta'minoti va byudjet bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilinishi imkoniyatidan foydalanishlari mumkin.

Yillik moliyaviy bashorat shaklida ko'rsatilishicha, bunday bashorat kompaniya uchun oyma-oy kutilayotgan pul mablag'lari kirimini va oyma-oy asosida majburiyatlar qoplanishining to'lovini amalga oshirilishini ko'rsatib beradi. Pul mablag'lari hisob-kitobi kreditorlarga firmaning kreditga bo'lgan tig'iz talabini baholash uchun va operatsion tsikl davomida qisqa muddatli ssudalarni qoplash uchun etarli darajadagi pul mablag'larini ishlab topishga qodirligini aniqlash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari pul mablag'larini hisob-kitobi kreditorlarga kompaniyaning uzoq muddatli yoki qisqa muddatli kreditlarga ehtiyoji mavjudligini aniqlashga yordam beradi. Korxonaning pul mablag'lari harakatining hisob-kitobi, ayniqsa, qarzdorlarning mavsumiy tijorat tsikli davomidagi moliyaviy ehtiyojlarini aniqlash uchun qulaydir.

Bozor uchun ishlab chiqarish bor joyda pul mablag'lari o'ta muhim iqtisodiy vosita bo'ladi. Pul mablag'lari ishlab chiqarishning takrorlanishiga xizmat qiladi,

iqtisodiy o'sishga ko'maklashadi. Pul shaklidagi mablag'lar bozor orqali resursga aylanadi, resurslar ishtirokida tovarlar yaratiladi, tovarlar sotilib yana pul olinadi. Shunday harakatning qaytarilib turishi iqtisodiy jarayon yuz berganini bildiradi. Har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'zining iqtisodiy jarayonini muntazam ravishda davom ettirishi uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lari bo'lishini taqozo etadi.

1.2. Bank hisobvaraqlarida amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitoblar va uning shakllari

Korxonalar boshqa yuridik shaxslar, davlat nazorat organlari va boshqa tashkilotlar bilan bo'ladigan hisob-kitoblarini asosan naqd pulsiz hisob-kitoblar ko'rinishida amalga oshiradi. Mablag'larni bir hisob raqamidan ikkinchi hisob raqamiga naqd pul ishtirokisiz, o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar naqd pulsiz hisob-kitoblar deyiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblar 1995 yil 4 sentyabrda «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni olib borish to'g'risida»gi 60-yo'riqnomaga asosan olib boriladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- korxona, tashkilotlar o'z pul mablag'larini (o'z mablag'lari va qarz mablag'lari) bankda saqlashlari lozim;
- barcha naqd pulsiz hisob-kitoblar bank orqali o'tishi kerak;
- xo'jalik organlari hisob-kitoblar shakllarini erkin tanlashlari va uni shartnoma orqali mustahkamlab qo'yishlari mumkin;
- xo'jalik organlarining hisob-kitoblar bo'yicha shartnomaviy munosabatlariga bank aralashmasligi kerak;
- tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlar to'lovchining roziligi bilan amalga oshiriladi;
- to'lovlar xo'jalik organlarining hisobvarag'idagi mablag'lari hisobidan, ba'zida bank krediti hisobidan amalga oshirishi mumkin;

- to'lov qoidasi mol etkazib beruvchi va mol sotib oluvchi tomonidan mol etkazib berish to'g'risidagi shartnoma asosida kelishib olinadi;

- mol etkazib beruvchining hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish mazkur mablag'larning mol sotib oluvchining hisobvarag'idan o'chirilganidan keyin amalga oshiriladi.

Bank muassasasida hisob-kitob varag'ini ochish uchun korxona quyidagilarni taqdim qilishi lozim:

- hisobvaraqli ochish haqida ariza (0401025-shakl); uni korxona rahbari imzolashi shart;

- korxonaning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqida hujjat;

- korxonaning notarius tasdiqlagan ustavi nusxasi;

- imzolar namunalari va muhr nusxasi tushirilgan, notarius tasdiqlagan varaqli (0401026-shakl);

- korxonani tuzish haqidagi ta'sis shartnoma (muassisning qarori, ta'sischilar umumiy yig'ilishining qarori) nusxasi;

- soliq organida ro'yxatdan o'tganligi va identifikatsiyalashgan soliq to'lovchi nomeri berilganligi to'g'risida notariusda tasdiqlangan guvohnoma ko'chirmasi yoki shaxs soliq to'lovchi sub'ekt emasligi to'g'risida ma'lumot.


Korxonaning hisobvarag'idan olingan materiallar, asosiy vositalar uchun mol yuboruvchiga to'lanmalari, byudjetdan, ijtimoiy sug'urtadan bo'lgan qarzni to'lash, ish haqi berish uchun kassaga olingan pul va boshqa zaruriyatlar uchun to'langan pul mablag'lari aks ettiriladi.

Odatda, bank tomonidan har qanday pul o'tkazib berish yoki naqd pul berish korxona yoki hisobvaraqli tasarruf etuvchining buyrug'i yoki u bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Lekin bank quyidagi hollarda korxona roziligini olmay boshqa tashkilotlarning hujjatlari bo'yicha uning hisob-kitob varag'idan pulni majburiy o'tkazib beradi: moliya va soliq organlarining buyrug'i bo'yicha to'lanmagan soliq va yig'imlar, shuningdek, ular bo'yicha jarima va boqimandalar summasini; qondirilgan da'volar summasini – ijro varaqlari, xo'jalik sudining

buyrug'i bo'yicha; kreditdan foydalanganligi uchun foiz summasini; bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar summasini.

To'lov shakllari deganda, odatda, huquqiy me'yorlarda ko'zda tutilgan, kreditor hisobiga mablag'larni o'tkazish usuli, hisob-kitob hujjati turi va hujjatlar aylanish tartibi bilan farqlanuvchi naqd pulsiz to'lovlar shartlari ko'zda tutiladi.

Korxonalar o'rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblarning quyidagi shakllari mavjud:



1.1-rasm. Naqd pulsiz hisob-kitob turlari³.

Mablag'larni to'lovchi bilan oluvchi o'rtasidagi to'lovlar shakli shartnoma (kelishuv) bilan belgilanadi.

Hisob-kitob hujjatlari belgilangan standartlar talablariga muvofiq kelishi va hisob-kitob hujjati nomi, hisob-kitob hujjati raqami, uning yozilgan kuni, oyi, yilini o'z ichiga olish kerak. Kun raqamlarda, oy so'z bilan, yil raqamlar bilan ko'rsatiladi, hisoblash mashinalarida to'ldiriladigan to'lov hujjatlarida oy raqamlarida ko'rsatilishi mumkin, to'lovchi bankining raqami, to'lovchi bankining nomi ko'rsatiladi, to'lovchi bankining nomi o'rniga hujjat matnida uning firma belgisi; to'lovchining nomlanishi, uning bankdagi hisob raqami; mablag' oluvchining nomlanishi, uning bankdagi hisob raqami; oluvchi bankining nomlanishi (chekda ko'rsatilmaydi), mablag' oluvchi bankning raqami ko'rsatilishi mumkin. To'lovchi va mablag' oluvchi nomining banklar va mijozlar ishini

³ muallif tomonidan tayyorlangan

qiyinlashtirmaydigan oqilona qisqartirilishiga yo'l qo'yiladi, to'lov maqsadi ko'rsatiladi (chekda ko'rsatilmagan).

Bank pul berish, naqd pulsiz o'tkazishlar, ba'zi hollarda hisobga yozishlari ham maxsus shakldagi hujjatlar bo'yicha amalga oshiriladi, ularga rahbar va bosh buxgalter imzo chekib, korxona muhri bilan tasdiqlanadi.

Qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan ayrim hollarda bank pul mablag'larini korxonaning hisob-kitob varag'idan inkasso yo'li bilan majburiy tarzda o'chiradi. Bundan tashqari, bank ssudalaridan foydalanganlik uchun foizlar, to'lash muddati o'tgan ssudalar bo'yicha summalar, bank xizmatlari qiymati singari va hokazo pul summalarini o'zining xohishiga qarab hisobdan o'chiradi. Bunda bank pullarni hisob-kitob varag'idan o'chirish, shu jumladan pullarni byudjetga o'tkazish va kassaga ish haqi uchun berishni unga tegishli hujjatlar kelib tushgandagidek ketma-ketlikda amalga oshiradi.

Korxona va tashkilotlar bilan hisob-kitoblarda ular o'rtasida ko'zda tutilgan to'lov shakliga bog'liq holda hujjatlar qo'llanadi. Agar shartnomada korxonaning o'zi qarzini mol etkazib beruvchilar, pudratchilar va turli tashkilotlarga o'tkazishi ko'zda tutilgan bo'lsa, to'lov topshiriqnomasi yoziladi.

To'lov topshiriqnomasi korxonaning o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bankka o'z hisobvarag'idan muayyan summani boshqa korxonaning va shu bankdagi yoki ana shu shaharda yoxud boshqa shaharda joylashgan bank muassasasidagi hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risidagi topshirig'i hisoblanadi. Bunda to'lovchi bankka belgilangan shakldagi blankda topshiriqnoma taqdim etadi.

Topshiriqnomalar yozilgan kundan boshlab 10 kun davomida amal qiladi (yozilgan kun hisobga kirmaydi).

Tomonlarning kelishuviga ko'ra topshiriqnomalarga asoslangan to'lovlar muddatli, muddatdan oldin va muddati uzaytirilgan bo'lishi mumkin.

Muddatli to'lov quyidagi variantlarda amalga oshiriladi:

- bo'nak to'lovi, ya'ni tovarlarni yuklab jo'natish yoki xizmatlar ko'rsatishdan oldin;

- tovar yuklab jo'natilganidan so'ng, ya'ni tovarni to'g'ridan-to'g'ri aktseptlash yo'li bilan;

- yirik bitimlarda qisman to'lovlar.

Muddatidan oldin va muddati uzaytirilgan to'lovlar shartnomaviy munosabatlar doirasida, tomonlarning moliyaviy mavqeiga zarar keltirmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Olingan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun topshiriqnomalar bank tomonidan ular taqdim etilgan kunda hisob-kitob varag'ida mablag'lar bo'lganda yoki bank ssudasi hisobiga imkoniyati mavjud bo'lgandagina qabul qilinadi.

To'lovlarning to'lov talabnoma-topshiriqnomalari shaklida mol etkazib beruvchi mahsulotni yuklab jo'natgandan so'ng to'lov talabnomasini yozib, unga xizmat ko'rsatadigan bankka topshiradi. U xaridordan pulni undirish va uni mol etkazib beruvchining hisob-kitob varag'iga kiritish uchun talabnomani xaridorning bankiga jo'natadi. To'lovchining aktsepti (roziligi) mavjud bo'lganda, hisobvaraqlar haqi to'lanadi. Agar shartnomaga muvofiq korxonaning o'zi xaridorlardan berilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar qiymatini undirish kerak bo'lsa, to'lov talabnoma-topshiriqnomasi tuziladi, uning shakli va mazmuni to'lov topshiriqnomasiga o'xshashdir.

To'lov talabnoma-topshiriqnomasi mol etkazib beruvchining xaridorga bankni chetlab o'tib, unga yuborilgan to'lov va yuklab jo'natish hujjatlari asosida, shartnoma bo'yicha etkazib berilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini to'lash to'g'risidagi talabini ifodalaydi.

To'lovchi olingan to'lov talabnoma-topshiriqnomasini to'lash imkoniyatini belgilab, uni xizmat ko'rsatuvchi bank muassasasiga topshiradi, toki to'lov talabnoma-topshiriqnomasi bo'yicha aktseptlangan summa to'lovchi hisobvarag'idan mol etkazib beruvchining hisobvarag'iga o'tkazilsin.

To'lov talabnoma-topshiriqnomalarini mol etkazib beruvchi 0401040 – son blankda yozadi va shartnomada ko'zda tutilgan yuklab jo'natish hamda boshqa hujjatlar bilan birga 3 nusxada bevosita xaridorga yuboriladi.

Birinchi nusxa belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, mol etkazib beruvchining imzolari va muhr izi qo'yilgan bo'lishi kerak.

To'lov talabnoma-topshiriqnomasi to'lovchi hisobvarag'ida mablag' bo'lganida qabul qilinadi.

To'liq yoki qisman to'lashga rozi bo'linganda to'lovchi to'lov talabnoma-topshiriqnomasining barcha nusxalarini hisobvaraqni tasarruf etishga vakolatli shaxslar imzolari va muhr izi bilan rasmiylashtiradi hamda ularning hammasini xizmat ko'rsatuvchi bankka topshiradi, bunda:

- birinchi nusxa mablag'larni to'lovchi hisobvarag'idan chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi va muomala yakunlanganidan so'ng bank uchun hujjatlarda joylashtiriladi;

- ikkinchi nusxa mol etkazib beruvchiga xizmat ko'rsatadigan bankka yuboriladi;

- uchinchi nusxasi yuklab jo'natish hujjatlari bilan birga jo'natish uchun qabul qilish va tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar haqi to'langani to'g'risida tilxat sifatida to'lovchiga qaytariladi.

- to'lovchi bankka aktseptlangan to'lov talabnoma-topshiriqnomalarini taqdim etishi shart bo'lgan muddatni tomonlar shartnomada belgilaydi va uni bank nazorat qilmaydi.

To'lov talabnoma-topshiriqnomasi unga ilova qilingan yuklab jo'natish hujjatlari va to'lashdan bosh tortilgani to'g'risidagi xabarnoma bilan birga bevosita mol etkazib beruvchiga qaytarib beriladi. Kelib tushgan va to'lanmagan to'lov hujjatlari hisobini to'lovchi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

To'lov talabnomasi hisob-kitob hujjati bo'lib, mol etkazib beruvchi (yuk jo'natuvchi) va vositalarni boshqa oluvchilarning to'lovchiga muayyan summani bank orqali to'lash to'g'risidagi talabini o'z ichiga oladi.

To'lov talabnomalari bilan hisob-kitob qilish zarurati O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan, yuzaga kelgan moliyaviy vaziyatdan va to'lovlarni ta'minlash zaruratidan kelib chiqib belgilanadi.

To'lov talabnomalari bilan hisob-kitob qilishda vositalarni oluvchi unga xizmat ko'rsatuvchi bankka inkasso uchun to'lovchidan muayyan summani bank orqali to'lash talab qilingan hisob-kitob hujjatini taqdim etadi.

To'lovchilarning aktseptli yoki aktseptsiz talabli hisob-kitoblari korxonalar o'rtasida yuklab jo'natilgan (berilgan) tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun, boshqa to'lovlar bo'yicha esa – amaldagi qonunlar yoki shartnomada ko'zda tutilgan hollarda qo'llanadi, talabnomada mazkur to'lov shaklini belgilagan tegishli me'yoriy hujjat, shartnoma bandiga, albatta, havola qilinishi kerak.

Olingan aktsept belgilangan hisob-kitoblarda talabnoma aktsept muddati tugagan kunning ertasiga to'lanadi.

To'lovchi unga xizmat ko'rsatadigan bank muassasasiga mazkur bank muassasasi talabnomani olgan kundan so'ng 3 kun davomida, talabnoma kelib tushgan kunni hisobga olmaganda, aktseptdan voz kechishi to'g'risida aytish huquqiga egadir.

Zarurat tug'ilganda korxonaning so'roviga binoan bank muassasasi rahbari talabnoma aktsepti muddatini 10 kunga qadar uzaytirishi mumkin.

Bank tomonidan 10 kun mobaynida rozilik (aktsept) olinmagan taqdirda bunday talabnomalar bank muassasasiga qaytarilib, hujjat aktseptlanmagani ko'rsatiladi.

Aktseptdan voz kechishlarni qabul qilish huquqi berilgan mansabdor shaxslar doirasi bank rahbari tomonidan belgilanadi. Agar aktseptdan voz kechish umuman asoslab berilmagan bo'lsa, uni bank ijro etish uchun qabul qilmaydi.

Xaridorlar, mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblarda tijorat banklarining veksellari bo'yicha hisob-kitoblar borgan sari keng qo'llanilmoqda.

Veksel bir tomon (veksel beruvchi) ikkinchi tomonga (veksel tuzuvchiga) bergan va gerb yig'imi to'langan, belgilangan shaklda tuzilib, so'zsiz yozma qarz pul majburiyati hisoblanadi. Veksellar oddiy va o'tkazma veksellar bo'lishi mumkin.

Oddiy veksel yozma hujjat bo'lib, veksel beruvchi (qarzdor) ning muayyan pul summasini muayyan muddatda va muayyan joyda veksel tutuvchiga yoki uning buyrug'iga binoan to'lashi to'g'risida oddiy va hech narsa bilan shartlanmagan majburiyatidir.

O'tkazma veksel (tratta) yozma hujjat bo'lib, veksel beruvchining to'lovchiga muayyan pul summasini muayyan muddatda va muayyan joyda oluvchiga yoki uning buyrug'iga binoan to'lashi to'g'risida so'zsiz buyrug'idir.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligida veksellardan amalda foydanilmayapti. Ular muomalada bo'lmasada, ammo hisob-kitoblarning qulay usulidan biri bo'lib hisoblanadi.

Inkasso topshiriqnomalariga binoan to'lovlar hisobi korxonalar hisobvaraqlarini mablag'larni ular rozilgisiz hisobdan o'chirishning quyidagi hollarida qo'llanadi: byudjetga to'lovlar bo'yicha boqimandalar, jarimalarni undirishda va mablag'larni hisobdan o'chirishning so'zsiz tartibi belgilangan boshqa hollarda: undiruvchilarning farmoyishlari bo'yicha; ijro etish va unga tenglashtirilgan hujjatlar bo'yicha.

Mablag'larni hisobvaraqlardan so'zsiz tartibda hisobdan o'chirish undiruvchilarning to'lov talabnoma-topshiriqnomasi blankida taqdim etiladigan farmoyishlari asosida amalga oshiriladi.

Rejali to'lovlar tartibidagi hisob-kitoblar shakli korxonalar o'rtasida, ya'ni mol etkazib beruvchi va xaridor o'rtasida doimiy aloqa mavjud bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Hisob-kitobning bu shakli mashinasozlik korxonalarida, ko'mir, gaz, metall sotib olishda, oziq-ovqat sanoati korxonalari bilan savdo tashkilotlari o'rtasida non, sut mahsulotlarini sotish va sotib olishda qo'llaniladi. Uning xususiyati shundaki, hisob-kitob har bir jo'natilgan mahsulot uchun emas, balki belgilangan muayyan muddatda, ya'ni har kuni yoki 3-5 kunda bir marta olib boriladi. Ushbu shakldagi hisob-kitobning to'g'ri olib borilishini bank nazorat qilib turadi. Hisob-kitob hujjatlari xaridor yoki mol etkazib beruvchi tomonidan yozilishi mumkin. Vaqti-vaqti bilan jo'natilgan mahsulot va to'langan pul tekshirib

turiladi, o'rtadagi farq qo'shimcha mablag' to'lash yoki mahsulot jo'natish bilan tartibga solinadi.

Akkreditiv bankning shartli pul majburiyatnomasi bo'lib, bank bu hujjatni mijozning topshirig'iga ko'ra shartnoma bo'yicha uning kontragentiga beradi. Bu shartnomaga ko'ra akkreditiv ochgan bank (emitent bank) mahsulot etkazib beruvchiga pul to'lashi yoxud shunday to'lovlar o'tkazish uchun boshqa bankka vakolat berishi mumkin. Bunda mijoz akkreditivda ko'zda tutilgan hujjatlarni taqdim etishi va akkreditivning boshqa talablarini bajarishi shart qilib qo'yiladi.

Akkreditivlarning quyidagi turlari ochilishi mumkin:

- qoplangan (deponentlangan) yoki qoplanmagan (kafolatlangan);
- qaytarib olinadigan yoki qaytarib olinmaydigan.

Agar akkreditiv ochilayotgan vaqtda emitent bank to'lovchining o'z mablag'larini yoki unga berilgan kreditni emitent bank majburiyatlari amal qiladigan butun muddatga «Akkreditivlar» degan alohida balans hisobvarag'iga qo'yish uchun mahsulot etkazib beruvchi banki (ijrochi bank) ixtiyoriga o'tkazsa, bu qoplangan (deponentlangan) akkreditiv hisoblanadi.

Banklar orasida korrespondentlik munosabatlari o'rnatilgan hollarda qoplanmagan (kafolatlangan) akkreditiv ijrochi bankda unga emitent bankning ijrochi bankdagi hisobvarag'idan butun akkreditiv summasini chiqarib olish huquqini berish yo'li bilan ochilishi mumkin.

Har bir akkreditivda u qaytarib olinadigan yoki qaytarib olinmaydigan shakldaligi aniq ko'rsatilishi kerak. Agar shunday ko'rsatma bo'lmasa, akkreditiv qaytarib olinadigan deb hisoblanadi.

Qaytarib olinmaydigan akkreditiv uning asosida pul oladigan mahsulot etkazib beruvchining roziligisiz o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas.

Akkreditiv faqat bitta mahsulot etkazib beruvchi bilan hisob-kitob qilish uchun ochilishi mumkin.

Akkreditiv amal qiladigan muddat va hisob-kitob qilish tartibi to'lovchi bilan mahsulot etkazib beruvchi o'rtasidagi shartnomada belgilab qo'yiladi. Shartnomada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi zarur:

- emitent bank nomi;
- akkreditiv turi va uni ijro etish usuli;
- akkreditiv ochilgani to'g'risida mahsulot etkazib beruvchiga xabar qilish usuli;

- akkreditiv bo'yicha pul olish uchun mahsulot etkazib beruvchi taqdim etadigan hujjatlarning to'liq ro'yxati va aniq tavsifi;

- tovar jo'natilgandan keyin hujjatlarni taqdim etish muddati hamda ularni rasmiylashtirishga doir talablar;

- boshqa zarur hujjatlar va shartlar.

Emitent kafolatlangan akkreditivlarni xaridor bilan kelishuvga ko'ra va boshqa bank bilan o'rnatilgan korrespondentlik munosabatlari shartlariga muvofiq ochadi. Mahsulot etkazib beruvchining banki bunday akkreditivlarni belgilangan tartibda ijro etadi.

Akkreditiv ochmoqchi bo'lgan to'lovchi o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bankka (emitent bankka) akkreditiv uchun elektron ariza beradi. Bu arizada to'lovchi quyidagilarni ko'rsatishi shart:

- akkreditiv ochish uchun asos bo'lgan shartnoma raqami;
- akkreditiv amal qiladigan muddat (akkreditiv yopiladigan kun va oy);
- mahsulot etkazib beruvchining nomi;
- akkreditivni ijro etuvchi bank nomi;
- akkreditiv ijro etiladigan joy;
- akkreditiv bo'yicha to'lovlar o'tkazilishiga asos bo'ladigan hujjatlarning to'liq va aniq nomi, ularni taqdim etish muddati va rasmiylashtirish tartibi (to'liq batafsil ro'yxat arizaga ilova qilinishi mumkin);

- akkreditiv turi va unga doir zarur ma'lumotlar;
- akkreditiv qanday tovarlar yuklab jo'natish (xizmatlar ko'rsatish) uchun ochilayotgani, tovarlar yuklab jo'natish (xizmatlar ko'rsatish) muddati;

- akkreditiv summasi;
- akkreditivni amalga oshirish usuli.

Elektron to'lov hujjatini to'g'ri rasmiylashtirish uchun to'lovchilar mahsulot etkazib beruvchidan akkreditiv bo'yicha uning nomiga ochilgan hisobvaraqa raqamini aniqlab olishlari kerak.

Akkreditiv ochish to'g'risidagi ariza akkreditiv shartlarini bajarish uchun to'lovchi bankiga zarur miqdordagi nusxalarda taqdim etiladi.

Bank muassasasiga kelib tushgan akkreditivlar hisobini yuritish uchun to'lovchi bankida «puli to'lanadigan akkreditivlar» degan balansdan tashqari hisobvaraqa ochiladi.

Ijroga qabul qilingan akkreditiv maxsus shakldagi daftarda ro'yxatga olinadi. Unda sana, tartib raqami, mahsulot etkazib beruvchining nomi, akkreditiv muddati va summa ko'rsatiladi. Akkreditivga o'tkazish daftarda ro'yxatga olingan tartib raqami beriladi.

Cheklar bilan hisob-kitob qilish tartibi Markaziy bank chiqargan qoidalarda belgilab qo'yilgan.

Hisob-kitob cheki - hisobvaraqa egasi (chek beruvchi) ning hisobvarag'idan muayyan summani oluvchi (chek ushlovchi)ning hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risida bankning maxsus blankida tuzilib, bankka yozma ravishda bergan topshiriqdir.

Hisob-kitob cheklari, nafaqat xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan jismoniy shaxslar o'rtasida naqd pulsiz hisob-kitob qilishda qo'llaniladi.

Hisob-kitob cheklari quyidagi turlarga bo'linadi:

- bank aktseptlamagan cheklar;
- bank aktseptlagan cheklar;
- egasining nomi yozilgan (hisob-kitob) cheklari – bir martalik;
- limitlangan daftarchalar cheklari.

Chek blanklari Markaziy bank bilan kelishib belgilangan andozada, tijorat banklarining buyurtmalari bo'yicha tayyorlanadi. Chek daftarchalarining blanklari qat'iy hisobda turadigan hujjatlar hisoblanadi.

Limitlangan chek daftarchalaridan berilgan cheklar ularni xizmat ko'rsatuvchi bankka taqdim etish uchun 10 kun mobaynida amal qiladi. Bunda ular yozib berilgan kun hisobiga kirmaydi.

Cheklar to'lov summasi belgilangan vaqtda yozib boriladi. Chek daftarchalarining egalari ularni mahsulot etkazib beruvchilar (chek bo'yicha pul oluvchilar) ga berishi, shuningdek to'ldirilmagan chek blanklariga imzo chekib qo'yishi taqiqlanadi.

Hozirgi kunda respublikamiz amaliyotida hisob-kitob shakllarining bir necha turi amal qilmoqda. Yuqorida sanab o'tilgan hisob-kitob shakllaridan akkreditiv shakli eng samaralisi hisoblanadi. Ammo rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, ko'pgina davlatlarda hisob-kitob shakllarining ilg'or turlari, jumladan faktoring shakli keng qo'llaniladi. Faktoring shakli korxona va tashkilotlar o'rtasida bo'ladigan hisob-kitoblarni o'z vaqtida va tezkorlik bilan amalga oshirishga xizmat qiladi. Fikrimizcha, respublikamiz amaliyotida ham hisob-kitobning ushbu shaklini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1.3. Pul mablag'lari harakati hisobining vazifalari

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida har bir korxonadan pul mablag'laridan samarali foydalanishni taqozo qilinadi. Korxona va tashkilotlarda pul mablag'laridan to'g'ri va samarali foydalanish ularning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar, qolaversa, xorijiy kompaniyalar bilan aloqasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning pul mablag'laridan foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yishda, avvalo, pul mablag'larining hisobi, auditori va tahliliga muhim e'tibor qaratish lozim.

Ma'lumki, mustaqillikka erishilgan vaqtdan boshlab respublikamiz buxgalteriya tizimida muhim islohotlar o'tkazilib, uni bosqichma-bosqich xalqaro andozalarga moslashtirmoqda.

Buxgalteriya hisobi uzoq vaqtlar davlat mulki ustidan markazlashtirilgan hisob olib borishning vositasi bo'lib keldi. Respublikamiz mustaqillikka

erishganidan keyin buxgalteriya hisobi sohasida ham bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bugungi kunda buxgalteriya hisobining ayrim tomonlari davr talabiga to'la javob bermay qoldi. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish va bozor munosabatlarini rivojlantirish buxgalteriya hisobini ham isloh qilishni taqozo etmoqda. Bu masalada iqtisodchi olimlarimiz o'z fikr mulohazalarini bildirib, turli xil qarashlar, munozaralar olib borishmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobini tashkil qilish va yuritishni isloh qilish, shuningdek buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasini xalqaro hisob standartlariga moslashtirish, buxgalteriya hisobi va auditning milliy standartlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llash hamda har bir tarmoq xususiyatlariga mo'ljallangan hisob uslubiyatlarini ishlab chiqish borasida bir talay ishlar qilinmoqda.

Jumladan, «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunda korxona faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar barcha foydalanuvchilar uchun foydali bo'lishi lozimligi uqtirib o'tilgan. Qonunning 7-moddasiga binoan, pul mablag'lari buxgalteriya hisobining ob'ektlaridan biri bo'lib hisoblanadi⁴. Shu sababli pul mablag'lari buxgalteriya hisobida boshqa ob'ektlar singari hisobda o'z vaqtida va to'g'ri eks ettirilishi lozim.


Hozirgi kunda dunyodagi 100 dan ortiq mamlakatda buxgalteriya hisobi yagona yondoshuv asosida yuritilmoqda, ammo har bir alohida olingan mamlakatda uning iqtisodiyoti, mulkchilik tizimi va xo'jalik yuritish tizmining xususiyatlarini hisobga olgan holda, mana shu xususiyatlarni nazarda tutuvchi milliy andozalarni qabul qilish orqali hisobga olinadi.

Buxgalteriya hisobi va hisobotini xalqaro talablarga muvofiq o'zgartirish keyingi vaqtlarda O'zbekiston uchun tobora dolzarb ishga aylanmoqda. Bunga, birinchidan, xalqaro bozorlarda ish olib boradigan kompaniyalar o'rtasida munosib muomala tili bo'lishini talab qiluvchi jahon iqtisodiyotining rivojlanishi, ikkinchidan, xalqaro andozalarni chuqur o'rganish va ularni mamlakatimiz amaliyotida keng qo'llanish zarurligi sabab bo'lmoqda. Shu boisdan ham buxgalteriya hisobining milliy andozalarini ishlab chiqishda bevosita xalqaro

⁴ O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. T.; 2016y. 7-modda.

andozalarga tayanmoqda.

Buxgalteriya hisobining milliy andozalarini amalga kiritish zarurati asosan buxgalteriya hisobining bazaviy qoidalari va tamoyillarini tushuntirish va umumlashtirish, asosiy tushunchalarni bayon qilish, u yoki bu buxgalteriya usullarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasida hisobning o'ziga xos xususiyatlarini qo'llashdan iboratdir. Respublikamizda pul mablag'larini buxgalteriya hisobida aks ettirishni tartibga solish maqsadida buxgalteriya hisobining milliy andozalari ishlab chiqilgan.



1.2-rasm. Pul mablag'leri harakatini hisobga olishda qo'llaniladigan BHMSlar tasnifi⁵

⁵ Chizma muallif tomonidan tayyorlangan

Pul mablag'lari hisobini to'g'ri tashkil qilish va yuritishni ta'minlashda, avvalo, hisob oldiga muayyan vazifalar qo'yiladi. Pul mablag'larini hisobga olishning vazifalari quyidagilardir:

- korxona uchun maqbul bo'lgan hisob-kitob shaklini to'g'ri tanlash;
- korxona va tashkilotlarda pul mablag'lari harakati hisobini to'g'ri tashkil qilish;
- kassadagi pul mablag'lari kirimi va chiqimini o'z vaqtida hujjatlarda rasmiylashtirish;
- korxona kassasidagi mablag'larning naqdligini ta'minlash maqsadida inventarizatsiyalarni muntazam o'tkazib turish;
- muayyan maqsadlar uchun ajratilgan pul mablag'larining o'z vaqtida hisobdan chiqarishni ta'minlash;
- hisob-kitob va valyuta hisobvarag'idagi pul mablag'larining o'z vaqtida kirim va chiqim qilinishini ta'minlash;
- hisob-kitob va valyuta schyotlaridagi mablag'lar harakati bilan bog'liq muomalalarni o'z vaqtida hujjatlarda rasmiylashtirishni ta'minlash;
- akkreditivlar va cheklar bilan hisoblashuvlarni to'g'ri yo'lga qo'yish;
- pul mablag'larini hisobga olishda BHMAlarini keng qo'llash;
- pul mablag'lari harakati bo'yicha umumlashgan ma'lumotlarni «Pul oqimlari harakati to'g'risidagi hisobot»da to'g'ri aks ettirilishini ta'minlash.

Pul mablag'laridan samarali foydalanishni tashkil etish ko'p jihatdan korxonalarda pul mablag'larining harakatini optimal boshqarishni tashkil etish va ular ustidan nazoratni yaxshilashga bog'liq. Pul mablag'lari nazoratini tashkil etishning asosiy elementlaridan biri bo'lib esa korxonaning hisob-kitob schyoti hisoblanadi. Ya'ni hisob-kitob schyotidan samarali foydalanishni maksimal darajada ta'minlash, barcha kirib kelayotgan pul mablag'larini, albatta, bank orqali hisobga olish, barcha turdagi to'lovlarni banklar chiqargan cheklar yoki shunga o'xshash yozma topshiriqnomalar va ularning maxsus pul mablag'lari fondi orqali amalga oshirish lozim. Agarda ko'rsatilgan tartib qat'iy amal qiladigan bo'lsa, u

holda pul mablag'larining hisobi ikki tomonlama bo'ladi: birinchisi-korxonaning o'zida, ikkinchisi - bankda.

Buxgalter tomonidan tuziladigan har qanday hisobot o'z maqsadiga ega. Masalan, buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot va hokazolar. Sanab o'tilgan hisobotlar korxonaning moliyaviy holatini o'rganish bo'yicha qaralganda hamma savollarga ham etarli darajada javob bera olmaydi. Masalan kompaniya dividendlarini to'lash uchun etarli miqdordagi bo'sh pul mablag'lariga egami, korxona kreditorlik majburiyatlarini to'lash imkoniyatiga egamiq, korxona hisobot davrida qanday moliyaviy yoki investitsion faoliyat bilan shug'ullandi, va nihoyat, korxona oborotga (muomalaga) yangi aktsiyalar chiqardimi, agarda ha bo'lsa aktsiyalar chiqarishdan olingan mablag'larni qaysi maqsadlar uchun yo'naltirgan.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida bozor munosabatlarining rivojlanishi jarayonida shartnomaviy asoslarda mehnat vositalari va kreditlarini xarid qilish, mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni sotish bobida valyutada bitimlar tuzayotgan korxonalar o'rtasida munosabatlar kengayib bormoqda. Bundan tashqari, byudjet, banklar, sug'urta organlari, turli jamoat tashkilotlari, bevosita xodimlar va hokazolar bilan valyutada to'lov muomalalari amalga oshirilmoqda. Shu boisdan valyuta mablag'larini hisobga olishni ham dolzarb qilib qo'ymoqda. Valyuta mablag'larini hisobga olishda buxgalteriya hisobi quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- Zarur valyuta hisob-kitoblarini naqd pulsiz o'tkazishlar yo'li bilan ham, naqd pulli to'lovlar tarzida ham o'z vaqtida va to'g'ri bajarish;
- Valyuta mablag'larining miqdori, harakati hamda valyuta hisob-kitob muomalalarini hisobga olish registrlarida to'liq va tez aks ettirish;
- valyuta mablag'larini limitlar, smetalarga muvofiq mo'ljallangan amaldagi qoidalarga rioya qilish;
- valyuta mablag'lari va hisob-kitoblarning ahvolini yo'qlama (inventarizatsiya) dan o'tkazishni tashkil qilish va belgilangan muddatlarda o'tkazish;


- banklardagi chet el valyutasidagi kassa hamda valyuta hisobvaraqlaridagi pulning miqdorini but saqlanishini nazorat qilish;
- hisob-kitob va to'lov intizomiga rioya qilinishini, moddiy boyliklar va xizmatlar uchun to'lanadigan valyuta summalarini, shuningdek, kreditlash tartibida olingan mablag'larning o'z vaqtida o'tkazilishini nazorat qilish.

Turli mulkchilik tizimiga asoslangan iqtisod bozor mexanizmlarining muhim shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Uning sub'ektlari bo'lgan korxona va tashkilotlar, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar mulkning egasi va tasarruf etuvchisi sifatida uni to'g'ri boshqarishdan manfaatdordir. Bu esa, albatta, sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlari va hodisalarni davriy kuzatishni, faoliyat natijaviyligini batafsil o'rganishni, iqtisodiy tahlil qilishni talab etadi.

Pul mablag'lari harakatini yo'lga qo'yishda, albatta, tahlilning roli kattadir, buni bevosita mavjud pul mablag'lari harakati va oqimini baholashda ham ko'rish mumkin. Pul mablag'lari oqimini ilmiy va iqtisodiy jihatdan asoslashda ham tahlil muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, korxonalarning iqtisodiy faolligi va uning mustaqilligi, moliyaviy barqarorlik darajalarini o'rganish pul oqimlarini to'g'ri belgilashda zarur hisoblanadi.

Ma'lumki, auditning har bir ob'ekti ustidan nazoratni tashkil qilishda auditning standartlariga keng ahamiyat qaratiladi. Pul mablag'lari auditini o'tkazishda ham auditning milliy standartlarini amaliyotga keng tatbiq qilish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan auditning 21 ta milliy standartlari pul mablag'lari auditini o'tkazish muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Quyidagi chizmada pul mablag'lari auditida qo'llaniladigan auditning milliy standartlari tasnifi keltirilgan:

Hozirgi kunda yuqorida keltirib o'tilgan auditning milliy standartlari amaliyotda to'la-to'kis qo'llanilmayapti. Bu esa pul mablag'lari auditini o'tkazishda ham talaygina kamchiliklarni ro'yobga chiqarmoqda. Bundan tashqari, auditning milliy standartlarining xalqaro audit standartlariga nisbatan ancha-kamchiliklarga ega ekanligi ko'zga tashlanmoqda.



1.3-rasm. Pul mablagʻlari auditida qoʻllaniladigan auditning milliy standartlari⁶.

Umuman olganda, respublikamizda audit tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish davr talabi ekanligini inobatga oladigan boʻlsak, hali koʻpgina ishlar bajarilishi taqozo etiladi. Bizning fikrimizcha, pul mablagʻlari auditining oʻtkazishda asosiy eʼtibor auditorlik tanlashni toʻgʻri belgilash, auditorlik

⁶ muallif tomonidan tayyorlangan

tavakkalchiligi va muhimlik darajasini to'g'ri aniqlash hamda dalillar yig'ishni muayyan tizimga solishga qaratilishi lozim.

Pul mablag'lari auditini o'tkazishda muayyan ijobiy natijalarga erishish maqsadida auditning vazifalari belgilab olinishi zarur. Bizning fikrimizcha, pul mablag'lari auditining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- pul mablag'larining aktivlar qatorida aks ettirilish tashkil qilinishining to'g'riligini tekshirish;
- korxona kassasida pul mablag'lari hisobining to'g'ri tashkil qilinganligini tekshirish;
- kassada pul mablag'lari inventarizatsiyasining muntazam o'tkazilib turilishini tekshirish;
- pul mablag'lari bilan bog'liq hisob operatsiyalarining to'g'riligini tekshirish;
- pul mablag'lari harakati hisobi holatini baholash;
- buxgalteriya hisobi va hisobotida pul mablag'lari bilan bog'liq operatsiyalarni aks ettirish to'g'riligini va to'laligini baholash;
- pul mablag'lari inventarizatsiyasini va uning natijalarini hisobda aks ettirish to'g'riligini tekshirish.

I bob bo'yicha xulosa

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning pul mablag'laridan foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yishda, avvalo, pul mablag'larining hisobi, audit va tahliliga muhim e'tibor qaratish lozim.

Ma'lumki, mustaqillikka erishilgan vaqtdan boshlab respublikamiz buxgalteriya tizimida muhim islohotlar o'tkazilib, uni bosqichma-bosqich xalqaro andozalarga moslashtirmoqda.

Buxgalteriya hisobi uzoq vaqtlar davlat mulki ustidan markazlashtirilgan hisob olib borishning vositasi bo'lib keldi. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin buxgalteriya hisobi sohasida ham bir qator o'zgarishlar sodir

bo'ldi. Bugungi kunda buxgalteriya hisobining ayrim tomonlari davr talabiga to'la javob bermay qoldi. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish va bozor munosabatlarini rivojlantirish buxgalteriya hisobini ham isloh qilishni taqozo etmoqda. Bu masalada iqtisodchi olimlarimiz o'z fikr mulohazalarini bildirib, turli xil qarashlar, munozaralar olib borishmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobini tashkil qilish va yuritishni isloh qilish, shuningdek buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasini xalqaro hisob standartlariga moslashtirish, buxgalteriya hisobi va auditning milliy standartlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llash hamda har bir tarmoq xususiyatlariga mo'ljallangan hisob uslubiyatlarini ishlab chiqish borasida bir talay ishlar qilinmoqda.

Hozirgi kunda dunyodagi 100 dan ortiq mamlakatda buxgalteriya hisobi yagona yondoshuv asosida yuritilmoqda, ammo har bir alohida olingan mamlakatda uning iqtisodiyoti, mulkchilik tizimi va xo'jalik yuritish tizmining xususiyatlarini hisobga olgan holda, mana shu xususiyatlarni nazarda tutuvchi milliy andozalarni qabul qilish orqali hisobga olinadi.

Buxgalteriya hisobi va hisobotini xalqaro talablarga muvofiq o'zgartirish keyingi vaqtlarda O'zbekiston uchun tobora dolzarb ishga aylanmoqda. Bunga, birinchidan, xalqaro bozorlarda ish olib boradigan kompaniyalar o'rtasida munosib muomala tili bo'lishini talab qiluvchi jahon iqtisodiyotining rivojlanishi, ikkinchidan, xalqaro andozalarni chuqur o'rganish va ularni mamlakatimiz amaliyotida keng qo'llanish zarurligi sabab bo'lmoqda. Shu boisdan ham buxgalteriya hisobining milliy andozalarini ishlab chiqishda bevosita xalqaro andozalarga tayanmoqda.

Buxgalteriya hisobining milliy andozalarini amalga kiritish zarurati asosan buxgalteriya hisobining bazaviy qoidalari va tamoyillarini tushuntirish va umumlashtirish, asosiy tushunchalarni bayon qilish, u yoki bu buxgalteriya usullarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasida hisobning o'ziga xos xususiyatlarini qo'llashdan iboratdir. Respublikamizda pul mablag'larini buxgalteriya hisobida aks ettirishni tartibga solish maqsadida buxgalteriya hisobining milliy andozalari ishlab chiqilgan.

II BOB. KORXONANING BANKDAGI SCHYOTLARI BO'YICHA MUOMALALARI HISOBINI TASHKIL QILISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

2.1. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning bank hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari harakati hisobini yuritish tartibi

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxona va tashkilotlardan bank hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari hisobini to'g'ri yuritish taqozo qilinadi. Bank hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari hisobini to'g'ri tashkil qilishda, avvalo, naqd pulsiz hisob-kitob shakllarining amaliyotda qay darajada qo'llanilishiga bog'liqdir.

Ma'lumki, amaliyotda naqd-pulsiz hisob-kitob shakllari orasida to'lov topshiriqnomasi keng qo'llaniladi. To'lov topshiriqnomalari blanklarda (0401002) tuziladi, bitta bank muassasasi xizmat ko'rsatadigan uchta va undan ortiq oluvchiga o'tkazilganda esa banklarda yig'ma to'lov topshiriqnomalari (0401003) tuziladi.

Mablag' to'lovchi va oluvchiga bitta bank muassasasi tomonidan xizmat ko'rsatiladigan hisob-kitoblari topshiriqnoma asosida uch nusxada taqdim etiladi. Birinchi nusxa to'lovchi bankida memorial order bo'lib xizmat qiladi, ikkinchi nusxa bir shahardagi o'tkazishlarda uning hisobvarag'idan yozish chog'ida oluvchiga yuboriladi, uchinchi nusxasi to'lovchiga berilib, topshiriqnoma qabul qilinganligi to'g'risida tilxat va bank muassasasi shtampi bilan beriladi.

Agar mablag' to'lovchi va oluvchiga bir shaharda joylashgan turli bank muassasalari xizmat ko'rsatayotgan bo'lsa, topshiriqnoma to'rt nusxada taqdim etiladi, ularning birinchisidan memorial order sifatida foydalaniladi, ikkinchi va uchinchi nusxalari to'lovdan so'ng mablag' oluvchining bankiga yuboriladi, bunda ikkinchi nusxa order bo'lib xizmat qiladi va bankda qoladi, uchinchi nusxa oluvchi hisobvarag'idan ko'chirmaga ilova qilinadi, to'rtinchi nusxa to'lovchiga tilxat va bank shtampi bilan birga qaytariladi.

Ijro uchun qabul qilingan topshiriqnomalar summalari topshiriqnomalarda ko'rsatilgan to'lovchilar hisobvarag'idan o'chiriladi.

Aktseptlangan topshiriqnoma to'lovga faqat to'lov summada qabul qilinishi mumkin. Aktseptlangan topshiriqnomalarni qabul qilganda bank topshiriqnomaning orqa tomonida ularni to'lash uchun qabul qilgan korxonaning qabul qilish sanasi ko'rsatilgan shtampi bo'lishini nazorat qilishi kerak.

Hisob-kitobni bank tomonidan aktseptlangan topshiriqnoma bilan amalga oshirmoqchi bo'lgan to'lovchi unga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasasiga aktsept uchun topshiriqnomani (0401002) uch nusxada taqdim etadi. Dastlabki ikki nusxaga imzo chekilishi va muhr izi tushirilishi shart.

Topshiriqnomani bajarish mumkinligi va u to'g'ri rasmiylashtirilgani tekshirilganidan so'ng uning summasi bank muassasasi tomonidan topshiriqnoma taqdim etgan to'lovchining hisobvarag'idan o'chiriladi va «Aktseptlangan to'lov topshiriqnomalari va banklarning hisob-kitob cheklari» hisobvarag'ida deponentlanadi.

Topshiriqnomaning birinchi nusxasi bank muassasasi muhri izi bilan tasdiqlanadi va to'lovchining ishonchli vakiliga beriladi, bu vakilning imzosidan namuna topshiriqnoma ikkinchi nusxasida keltiriladi. Zarurat tug'ilganda bank ishonchli vakil shaxsini tasdiqlaydigan hujjatlarni topshiradi.

O'tkazma yuboruvchidan qabul qilingan aktseptlangan topshiriqnomalarni aloqa korxonalari va transport tashkilotlari ularga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasalariga to'lov topshiriqnomalarining blanklardagi reestrda (0401007) topshiradi.

Noto'g'ri rasmiylashtirilishi, depozitning amal qilish muddati tugagani yoki boshqa sabablarga ko'ra to'lashga qabul qilinmagan aktseptlangan topshiriqnomalar reestrda uning yakuni tuzatilgan holda o'chiriladi va hisobot taqdim etgan korxonaga qaytariladi.

Ishlatilmagan aktseptlangan topshiriqnoma summasi uni aktseptlagan bankka taqdim etilgan topshiriqnoma bo'yicha to'lovchi hisobvarag'ida tiklanadi.

Aktseptlangan topshiriqnoma uning aktsept kunidan boshlab bir oy davomida to'lash uchun taqdim etilmaganda ushbu topshiriqnoma summasi «Aktseptlanmagan to'lov topshiriqnomalari va banklarning hisob-kitob cheklari»

hisobvarag'idan «Boshqa debitorlar va kreditorlar» balans hisobvarag'iga o'tkaziladi va keyin da'vo muddati tugaganidan so'ng, respublika byudjetining daromadiga o'tkaziladi.

To'lov topshiriqnomasi bo'yicha pul o'tkazib berilganida quyidagi yozuvlar qilinadi:

D-t 6410-«Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik» - 25000 so'm

D-t 6520-«Davlat maqsadli fondlariga to'lovlar»- 3300 ming so'm

D-t 6990-«Boshqa majburiyatlar» - 1200 ming so'm

K-t 5110-«Hisob-kitob hisobvarag'i» - 29500 ming so'm.

To'lov talabnomasi 0401001 – sonli blanklarda tuziladi. Agar talabnoma spetsifikatsiya bilan muvofiqlashtirilmagan bo'lsa, unga tovar transport hujjatlari yoki ular o'rnini bosuvchi hujjatlar ilova qilinishi kerak. Bank boshqa ilovalarni qabul qilmaydi, amaldagi qoidalarda ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

Talabnomalarda mol etkazib beruvchi, albatta:

- shartnoma sanasi va raqamini ko'rsatadi;
- tovarlarni yuklab jo'natish (berish) sanasi hamda tovar- transport yoki qabul qilish-topshirish hujjatlari va transport turi, tovarlar aloqa korxonasi orqali jo'natmalar sifatida yuborilganda - pochta kvitantsiyalarining raqamlari ko'rsatilishi kerak.

Talabnomalar 4 nusxada taqdim etiladi:

- talabnomaning birinchi nusxasi to'lovchining bankiga to'lash paytida memorial-order bo'lib xizmat qiladi;

- talabnomaning ikkinchi nusxasi inkasso muomalasi yakunlanganidan so'ng mol etkazib beruvchining hisobvarag'idan ko'chirma qilganda unga berish uchun mo'ljallanadi;

- uchinchi nusxa unga ilova qilingan tovar-transport hujjatlari bilan birga talabnoma to'lovchining bankiga kelib tushgandan so'ng keyingi ish kunidan kechiqtirmay to'lovchiga to'lov to'g'risida xabar berish va aktsept uchun topshiriladi;

- to'rtinchi nusxa bir shahardagi hisob-kitoblarda mablag'lar hisobvarag'iga yozilgandan so'ng mol etkazib beruvchining bankida memorial-order sifatida ishlatiladi.

Talabnomalar tovar yuklab jo'natilgan (xizmat ko'rsatilgan)dan so'ng shartnomada tilga olingan muddatdan kechiqtirmay inkassoga topshiriladi.

Talabnomalar ikki nusxada tuziladigan reestrga (0401014) kiritiladi.

Reestr shakli mol etkazib beruvchilarning xohishiga binoan mol etkazib beruvchi bankining roziligi bilan o'zgartirilishi va rekvizitlar bilan to'ldirilishi mumkin.

Korxona buxgalteriyasida hisob-kitob varag'idagi pullar harakati bank ko'chirmalari bo'yicha «Hisob-kitob hisobvarag'i» nomli 5110–aktiv hisobvaraqda hisobga olinadi. Ushbu hisobvaraq bo'yicha kredit oborotlari 2-jurnal-orderda yoziladi, debet bo'yicha oborotlar esa turli jurnal-orderlarda aks ettiriladi. 2-jurnal-orderga 2-qaydnoma yuritiladi, unda 5110-«Hisob-kitob hisobvarag'i» hisobvaraq debetiga kiritilgan summalar hisobga olinadi.

Hisob-kitob varag'iga yozilgan va undan o'chirilgan summalarni hisobda aks ettirishdan oldin bank ko'chirmasi buxgalter tomonidan sinchiklab tekshiriladi va shundan so'ng bevosita hisob-kitob varag'idan ko'chirmada hisobvaraqlar korrespondentsiyalari tuziladi.

Bunda banklardagi korxonalarning hisob-kitob varaqlari passiv ekanini e'tiborda tutish zarur, binobarin, bank buxgalteriyasida pulning hisob-kitob varag'iga kelib tushishi hisobvaraqlarning krediti bo'yicha, hisobdan o'chirish esa uning debetida aks ettiriladi. Korxonalarda esa, aksincha, hisob-kitob varag'i aktiv hisoblanadi, shuning uchun pul mablag'larining hisob-kitob varag'ida ko'payishi debet bo'yicha, kamayishi esa kredit bo'yicha aks ettiriladi.

Agar bank ko'chirmasida xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa, tegishli summa 4860-«Da'volar bo'yicha olinadigan hisobvaraqlar» hisobvarag'ining debeti yoki krediti bo'yicha, 5110-«Hisob-kitob hisobvarag'i» hisobvaraq bilan korrespondentsiyada aks ettiriladi, bu haqda darhol bankka xabar qilinishi kerak.

Xatoning tuzatilgani to'g'risida bank korxonaga navbatdagi ko'chirmada xabar qiladi va bunga asoslanib tuzatuv yozuvini kiritadi.

Tovarlarni jo'natish va pul mablag'larini hisob-kitob hisobvaraqlariga o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan muomalalar buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylashtiriladi:

- tovarlar jo'natilishi bilan mol yuboruvchida:

D-t 4010-«Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan hisobvaraqlar» - 30000 ming so'm

K-t 9010-«Mahsulot sotishdan olingan daromad» - 30000 ming so'm.

- mol yuboruvchida hisob-kitob hisobvarag'iga pul o'tkazilganida:

D-t 5110-«Hisob-kitob hisobvarag'i» - 30000 ming so'm

K-t 4010-«Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan hisobvaraqlar» - 30000 ming so'm.

- materiallar kelib tushishi bilan mol oluvchilarda:

D-t 1010-«Xom-ashyo va materiallar» - 15000 ming so'm

K-t 6010-«Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan hisobvaraqlar» - 15000 ming so'm.

- mol sotib oluvchida hisob-kitob hisobvarag'idan pul o'tkazilganda:

D-t 6010-«Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan hisobvaraqlar» - 15000 ming so'm

K-t 5110-«Hisob-kitob hisobvarag'i» - 15000 ming so'm.

Rejali to'lovlar orqali olib boriladigan hisob-kitoblar hisobi mol yuboruvchining balansida 4010-«Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan hisobvaraqlar» hisobvarag'ining «Rejali to'lovlar hisob-kitobi» analitik hisobvarag'ida yuritiladi.

Mahsulot sotilganida quyidagicha provodka beriladi:

D-t 4010-«Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan hisobvaraqlar» - 30000 ming so'm

K-t 9010-«Mahsulotni sotishdan olingan daromad» - 30000 ming so'm.

Sotilgan mahsulotning puli kelib tushganida quyidagicha provodka beriladi:

D-t 5110-«Hisob-kitob hisobvarag'i» - 30000 ming so'm

K-t 4010-«Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan hisobvaraqlar» - 30000 ming so'm.

Mijoz (korxona) chek daftarchalarini unga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasasidan oladi. Mehnatga haq to'lash, pensiyalar, kasallik varaqasi bo'yicha nafaqalar, mukofotlar, xizmat safarlari va xo'jalik xarajatlari uchun naqd pullarni bank cheki asosida korxonaning hisob-kitob varag'idan shu korxona kassasiga beradi.

Pul cheki korxonaning hisob-kitob varag'idan chekda ko'rsatilgan naqd pul summasini berish to'g'risida bankka bergan farmoyishidan iborat. Chek siyohda yoki sharikli ruchkada to'ldiriladi. Unda summa, chek berilgan vaqt, oluvchining nomi, shuningdek, olingan summaning nima maqsadda ishlatilishi ko'rsatiladi.

Pul badallari haqidagi e'lon bilan hisob-kitob varag'iga naqd pullar topshirilganligi rasmiylashtiriladi. Ushbu hujjat bir nusxada to'ldiriladi va unda to'lanadigan pulning hosil bo'lish manbai ko'rsatiladi. Bank qabul qilingan pulga kassirga kvitantsiya beradi, u buxgalteriyada kassa chiqim orderini tuzish va kassa bo'yicha pul mablag'larini hisobdan chiqarish uchun asos vazifasini o'taydi.

Hisob-kitob varag'idagi barcha o'zgarishlar haqida bank o'z mijozini hisob-kitob varag'idan ko'chirmalar orqali xabardor qiladi. Bank ko'chirmalarida hisob-kitob varag'iga mablag'larning tushishi va undan hisobdan chiqarilishi, kun boshi va oxiri uchun undagi mablag' qoldiqlari ko'rsatiladi (-ilova).

Korxona buxgalteriyasi ko'chirmaga ilova qilingan hisob-kitob va to'lov hujjatlari bo'yicha har qaysi ko'chirmaning to'g'riligini hamda tushgan va hisobdan chiqarilgan summalarining mosligini tekshiradi. Xato topilgan taqdirda korxona bu haqda bank muassasasiga ko'chirma olinganidan so'ng 10 kundan kechikmay xabar qiladi.

Korxonaning hisob-kitob varag'idagi O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi pul mablag'larining miqdori va harakatini hisobga olish uchun 5110-«Hisob-kitob hisobvarag'i» aktiv pul hisobvarag'idan foydalaniladi. 5110-hisobvaraq debeti bo'yicha tushumlar tarziga bog'liq ravishda turli hisobvaraqlar

kreditidan hisob-kitob varag'iga mablag'larning tushishi bo'yicha xo'jalik muomalalari, 5110-hisobvaraqlar krediti bo'yicha esa xarajatning nima maqsadda qilinganligiga ko'ra hisob-kitob varag'i turli hisobvaraqlar debetiga mablag'larni hisobdan chiqarish bo'yicha xo'jalik muomalalari aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobining jurnal-order shaklidagi korxonaning hisob-kitob hisobvarag'i muomalalari 2-jurnal-orderda va 2-qaydnomada aks ettiriladi. Ko'rsatilgan registrlardagi yozuvlar qat'iy xronologik tartibda hisob-kitob varaqlari bo'yicha tekshirilgan va ishlov berilgan ko'chirmalar va ularga ilova qilingan pul hisob-kitob hujjatlari asosida amalga oshiriladi (-ilova).

Korxonalarning maxsus hisobvaraqlaridagi pul muomalalari buxgalteriya hisobi 5500-«Banklardagi maxsus hisobvaraqlar» hisobvarag'ida yuritiladi. Mazkur hisobvaraqlar mamlatimiz hududida va undan tashqarida akkreditivlar, chek daftarchalari, boshqa to'lov hujjatlari ko'rinishida (veksellardan tashqari), joriy, alohida va boshqa maxsus hisobvaraqlarda turgan milliy hamda xorijiy valyutadagi pul mablag'lari va ularning harakati to'g'risidagi, shuningdek aniq maqsadlar uchun moliyalash mablag'lari (tushumlari)ning alohida saqlanadigan qismi harakati haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirishga mo'ljallangan.

Banklardagi maxsus hisobvaraqlarni hisobga olish uchun quyidagi hisobvaraqlar ochilishi mumkin:

5510-«Akkreditivlar»

5520-«Chek daftarchalari»

5530-«Boshqa maxsus hisobvaraqlar».

5510-«Akkreditivlar» hisobvarag'ida akkreditivlarda turgan mablag'lar harakati hisobga olinadi. Akkreditiv shaklida hisob-kitob qilish tartibi Markaziy bank qoidalarida belgilab qo'yilgan.

Korxonalarda pul mablag'lari akkreditivga kiritilishi 5510-«Akkreditivlar» hisobvarag'i debetida hamda 5110-«Hisob-kitob hisobvarag'i», 5210-«Valyuta hisobvarag'i», 6810-«Qisqa muddatli kreditlar» hisobvaraqlari va shunga o'xshash boshqa hisobvaraqlarning kredit qismida aks ettiriladi.

5510-«Akkreditivlar» hisobvarag'i bo'yicha hisobga olingan akkreditivdagi mablag'lar ulardan foydalanilishiga qarab (bank bergan ko'chirmalarga muvofiq), odatda, 6010-«Mahsulot etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan hisobvaraqlar» hisobvarag'i debetiga o'tkazib boriladi. Akkreditivlardagi foydalanilmagan mablag'larni bank ular olingan hisobvaraqa tiklagandan keyin bu summalar 5510-«Akkreditivlar» hisobvarag'i kreditida 5110-«Hisob-kitob hisobvarag'i» yoki 5210-«Valyuta hisobvarag'i» hisobvaraqlari bilan korrespondentsiyada aks ettiriladi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, 5510-«Akkreditivlar» hisobvarag'iga doir tahliliy hisob korxona ochgan har bir akkreditiv bo'yicha yuritiladi.

5520-«Chek daftarchalari» hisobvarag'ida chek daftarchalarida turgan mablag'lar harakati hisobga olinadi.

Daftarchadan cheklar berilayotganda mablag'larning deponentga qo'yilishi 5520-«Chek daftarchalari» hisobvarag'i debetida hamda 5110-«Hisob-kitob hisobvarag'i», 5210-«Valyuta hisobvarag'i», 6810-«Qisqa muddatli kreditlar» hisobvaraqlari va shunga o'xshash boshqa hisobvaraqlarning kredit qismida aks ettiriladi. Bankdan olingan chek daftarchalari bo'yicha summalar korxona bergan cheklar puli to'lanishiga qarab, ya'ni bank o'ziga taqdim etilgan cheklar pulini to'lagan (bank bergan ko'chirmalarga muvofiq) summalarda 5520-«Chek daftarchalari» hisobvarag'i kreditidan hisob-kitoblar hisobi yuritiladigan hisobvaraqlar debetiga o'tkazib turiladi. Berilgan, lekin bank pulini to'lamagan cheklar bo'yicha summalar 5520-«Chek daftarchalari» hisobvarag'ida qoladi, 5520-«Chek daftarchalari» hisobvarag'i bo'yicha saldo bank bergan ko'chirmadagi saldoga mos kelishi lozim. Bankka qaytarilgan (foydalanilmagan) cheklar bo'yicha summalar 5520-«Chek daftarchalari» hisobvarag'ining kredit qismida 5110-«Hisob-kitob hisobvarag'i» yoki 5210-«Valyuta hisobvarag'i» hisobvaraqlari bilan korrespondentsiyada aks ettiriladi.

Korxonalarining alohida balans bilan ajratilgan va joriy xarajatlar qilish uchun mahalliy bank muassasalarida joriy hisobvaraqlar ochilgan filiallari, unga kiruvchi tarkibiy bo'linmalar yuqorida aytilgan mablag'lar harakatini 5500-

«Banklardagi maxsus hisobvaraqlar» hisobvarag'ining alohida analitik hisobvarag'ida aks ettiradilar.

Xorijiy valyutada pul mablag'lari mavjudligi hamda harakati hisobi 5500-«Banklardagi maxsus hisobvaraqlar» hisobvarag'ida alohida yuritiladi. Mazkur hisobvaraqa tahliliy hisob yuritilishi mamlakat hududida va xorijda akkreditivlar, chek daftarchalari va shu kabilardagi pul mablag'lari mavjudligi hamda harakati to'g'risida ma'lumot olish imkoniyatini ta'minlashi lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faqat milliy valyuta – so'mdan emas, balki har xil xorijiy valyutalardagi pul mablag'laridan foydalanmoqda va muomalalarni amalga oshirmoqda. Shu munosabat bilan valyuta boyliklari va muomalalari buxgalteriya hisobi ob'ektiga aylanmoqda.

Valyuta muomalalarining buxgalteriya hisobi:

- valyuta muomalalari korxona faoliyatining tashkil etuvchilari sifatida aks ettirilishini;
- korxonaning haqiqiy valyuta ahvoli aniq aks ettirilishini;
- valyuta bitimlarining qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi, valyuta boyliklarining borligi, ularning bus-butun saqlanishi va to'g'ri foydalanilishi ustidan nazoratni ta'minlashi lozim.

Korxona valyuta hisobvaraqlarini O'zbekiston Respublikasining hududida istalgan vakolatli banklarda ochishi mumkin. Korxonaning chet eldagi xorijiy bankda hisobvaraqa ochishi va u bo'yicha muomalalarni amalga oshirishi uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining ruxsati talab qilinadi. Buning uchun korxona ko'rsatilgan hisobvaraqlardagi mablag'lar qoldiqlari to'g'risidagi hisobotni hamda boshqa ma'lumotlarni Markaziy Bank belgilagan shakl va muddatlarda taqdim etishi shart.

Valyuta hisobvarag'ini ochish uchun korxona bankka quyidagi hujjatlarni taqdim qiladi:

- valyuta hisobvarag'ini ochish to'g'risidagi belgilangan shakldagi ariza;
- ustav va ta'sis shartnomasining notarial tartibda tasdiqlangan nusxasi;

- korxona tuzilganligi yoki ro'yxatga olinganligi haqidagi qarorning notarial tartibda tasdiqlangan nusxasi;

- korxona ro'yxatga olingan joydagi soliq inspeksiyasi va Pensiya fondida hisobga qo'yilganligi to'g'risida ma'lumotnoma;

- imzolar namunalari va muhr izi tushirilgan, notarial tartibda tasdiqlangan varaqcha (kartochka);

Korxonaning valyuta hisobvaraqlariga quyidagi manbalardan pul kelib tushadi:

- eksport tovarlariga haq to'lash uchun vakolatli banklar orqali chet eldan o'tkazilgan summalar;

- hisobvaraqlar egasidan sotib olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini to'lash uchun boshqa sohiblar (nerezidentlar, birinchi vositachilar, transport, sug'urta va boshqa tashkilotlar)ning valyuta hisobvaraqlaridan o'tkazilgan summalar;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan ruxsat etilgan boshqa manbalar.

Valyuta hisobvarag'idan mablag'lar uning egasi ko'rsatmasi bo'yicha quyidagi maqsadlarga o'chirilishi mumkin:

- hisobvaraq egasining eksport-import muomalalari bo'yicha qabul qilingan bank shaklida chet elga o'tkazilishi;

- keyinchalik import qilinadigan tovarlar, ishlar, xizmatlar haqini to'lash uchun chet elga o'tkazish maqsadida vakolatli bank mijozlari hisoblangan tashqi iqtisodiy tashkilotlarning hisobvaraqlariga o'tkazilishi;

- korxonalar ishlab chiqaradigan tovarlar haqini to'lash uchun boshqa sohiblar (nerezidentlar, birinchi vositachilar, transport, sug'urta va boshqa tashkilotlar)ning valyuta hisobvaraqlaridan o'tkazilishi;

- bankning vositachilik haqini to'lash maqsadida bankdan xorijiy valyutada olingan kreditlar bo'yicha qarzni, pochta-telegraf, xizmat safari xarajatlarini to'lash, valyuta bozorlarida sotish uchun foydalanilishi;

- qonun ruxsat etgan boshqa maqsadlar uchun foydalanilishi mumkin.

Xorijiy valyuta mablag'lari, qiymatliklari va muomalalari xo'jalik muomalalari sodir bo'lgan sanaga Markaziy bank kursi bo'yicha so'm ekvivalentida aks ettiriladi. Jumladan quyidagilar bo'yicha:

- kassadagi valyuta mablag'lari, bankdagi depozit va ssuda hisobvaraqlari, akkreditivlar, valyuta ssuda qarzlari;
- xorijiy valyutadagi debitor va kreditor qarzlari;
- tuzilgan shartnomalar bo'yicha yuk boj deklaratsiyasini rasmiylashtirish sanasiga import qilingan tovar-moddiy qiymatliklar va boshqa aktivlarning kirimi;
- bojxona to'lovlarining amalga oshirilishi;
- xorijiy valyuta ko'rinishidagi pulli hujjatlar;
- xorijiy valyutadagi qimmatli qog'ozlar.

Xorijiy valyutani sotish va sotib olish buxgalteriya hisobida muomala sodir bo'lgan sanaga bo'lgan Markaziy bank kursi bo'yicha aks ettiriladi.

Xorijiy valyutani sotish va sotib olishda sodir bo'ladigan kursdagi farq ijobiy bo'lsa – 9540-«Kurs farqlaridan olingan daromadlar» hisobvarag'ida, salbiy bo'lsa – 9620-«Kurs farqlaridan zararlar» hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Xorijiy valyutaning sotilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- valyuta hisobvarag'idan xorijiy valyutani Markaziy bank kursi bo'yicha o'tkazilishi:

D-t «Banklardagi maxsus hisobvaraqlar» hisobvarag'ining «Blokschet» analitik hisobvarag'i

K-t «Valyuta hisobvarag'i».

- Markaziy bank kursi bo'yicha xorijiy valyutani «Blokschet»dan chiqarilishi:

D-t «Boshqa aktivlarning sotilishi»

K-t «Banklardagi maxsus hisobvaraqlar» hisobvarag'ining «Blokschet» analitik hisobvarag'i.

- valyuta bozorida kelishilgan kurs bo'yicha sotilgan xorijiy valyutaning so'm ekvivalentining hisob-kitob hisobvarag'iga o'tkazilishi:

D-t «Hisob-kitob hisobvarag'i»

K-t «Boshqa aktivlarning sotilishi».

- xorijiy valyutani sotishda hosil bo'lgan ijobiy kurs farqini Markaziy bank kursidan ortig'ining aks ettirilishi:

D-t «Boshqa aktivlarning sotilishi»

K-t «Kurs farqlaridan olingan daromadlar».

- xorijiy valyutani sotishda hosil bulgan salbiy kurs farqining (Markaziy bank kursidan past) aks ettirilishi:

D-t «Kurs farqlaridan zararlar»

K-t «Boshqa aktivlarning sotilishi».

O'zining mahsulot (ish, xizmat)lari narxi (tariflari)ni xorijiy valyuta ekvivalentida belgilaydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zaro hisob-kitoblarni milliy valyuta-so'mda olib boradilar. Xizmat ko'rsatgan sanada to'lanmalarni tushgan sanasigacha Markaziy bank kursining o'zgarishi natijasida sodir bo'ladigan farq moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromad (xarajat) sifatida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy natijalariga olib boriladi.

Xorijiy valyutani sotib olish muomalalari buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar bilan rasmiylashtiriladi:

Valyuta bozorida kelishilgan kurs bo'yicha xorijiy valyutani sotib olish kuniga:

- xorijiy valyutani sotib olish uchun hisob-kitob hisobvarag'idan so'm ko'rinishidagi mablag'larni valyuta bozorida kelishilgan sotib olish kuniga bo'lgan kurs bo'yicha o'tkazib berilishi:

D-t «Banklardagi maxsus hisobvaraqlar» hisobvarag'ining «Blokschet» analitik hisobvarag'i

K-t «Hisob-kitob hisobvarag'i».

- Markaziy bank kursi bo'yicha xorijiy valyutaning valyuta hisobvarag'iga o'tkazilishi:

D-t «Valyuta hisobvarag'i»

K-t «Banklardagi maxsus hisobvaraqlar» hisobvarag'ining «Blokschet» analitik hisobvarag'i.

- xorijiy valyutani Markaziy bank kursidan past kursda sotib olish natijasida sodir bo'lgan ijobiy kurs farqining aks ettirilishi:

D-t «Banklardagi maxsus hisobvaraqlar» hisobvarag'ining «Blokshet» analitik hisobvarag'i

K-t «Kurs farqlaridan olingan daromadlar».

- xorijiy valyutani Markaziy bank kursidan yuqori kursda sotib olish natijasida sodir bo'lgan salbiy kurs farqining aks ettirilishi:

D-t «Kurs farqlaridan zararlar»

K-t «Banklardagi maxsus hisobvaraqlar» hisobvarag'ining «Blokshet» analitik hisobvarag'i.

Mamlakat hududida va uning tashqarisida joylashgan bankdagi xorijiy valyuta hisobvaraqlaridagi pul mablag'larining harakati va holati to'g'risida umumlashtirilgan ma'lumot quyidagi hisobvaraqlarda amalga oshiriladi:

5210-«Mamlakat ichidagi xorijiy valyuta hisobvaraqlari»

5220-«Xorijdagi valyuta hisobvaraqlari».

Korxonaning valyuta mablag'lari hisobvaraqlari debetida korxona valyuta hisobvaraqlariga mablag'larning tushumi, kredit tomonida esa ushbu mablag'larning chiqimi aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobida valyuta hisobvaraqlari bo'yicha muomalalar bank ko'chirmalari va ularga ilova qilingan pul-hisoblashish hujjatlari asosida olib boriladi. Korxona valyuta mablag'larining tahliliy hisobi xorijiy valyutada pul mablag'larini saqlash uchun bank muassasalarida ochilgan har bir hisobvaraq bo'yicha ochiladi.

Xorijiy valyuta harakati to'g'risidagi ma'lumotni bank muassasasi korxonaga valyuta hisobvarag'idan ko'chirma berish yo'li bilan xabar beradi. 5210-«Mamlakat ichidagi valyuta hisobvaraqlari»ning kredit oboroti 2/1-jurnal-orderda aks ettiriladi. Bu hisobvaraqning debet oboroti 2/1-qaydnomani yuritish bilan nazorat qilinadi. Valyuta hisobvarag'i bo'yicha tahliliy hisob kartochkalarda, valyutalarning nomlari bo'yicha yuritiladi.

Bugungi kunda milliy valyuta so'mning qadrini oshirishga bo'lgan sa'y-harakatlar naqd pulsiz hisob kitoblarni yuritishni, bankdagi hisobvaraqlar bo'yicha amalga oshiriladigan muomalalarni takomillashtirishni taqozo qiladi. Shuni inobatga olgan holda bank hisobvaraqlarida ochilgan hisobvaraqlar, jumladan valyuta scheti bo'yicha muomalalarni hisobga olishda xalqaro elektron o'tkazmalarni keng qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bankdagi hisobvaraqlar bo'yicha amalga oshiriladigan muomalalarni elektron o'tkazmalarda bajarish bu boradagi ishlarni tezlashtiradi hamda hisobvaraqlardagi mablag'larni o'z vaqtida va to'g'ri manzilga etkazishga xizmat qiladi.

2.2. Pul mablag'lari harakati hisobini takomillashtirish

Respublikamiz milliy valyuta qadrini oshirishda naqd pul muomalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham keyingi paytlarda naqd pul muomalalarini tartibga solish bo'yicha ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Pul muomalasini yanada takomillashtirish, naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini kengaytirish, bankdan tashqari muomalani qisqartirish va soliq to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olish maqsadida 2002 yil 3 avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Pul mablag'larining bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorning 5-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi va Markaziy banki zimmasiga alohida yirik miqdordagi pul mablag'lari muomalasi, shu jumladan, naqd pul berilishi bo'yicha axborotlarni elektron ayirboshlash tizimini ishlab chiqish va joriy etish vazifasi yuklatilgan. Bundan tashqari, ushbu Qarorning 10-bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki zimmasiga tijorat banklari bilan birgalikda 2002 yil 1 oktyabrigacha kredit plastik kartochkalarni muomalaga chiqarish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan.

Tijorat banklari zimmasiga chakana savdo va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan birgalikda tovarlar va

xizmatlarga haq to'lash sifatida plastik debet kartochkalari qabul qilinishini ta'minlovchi terminallar tarmog'ini kengaytirish vazifasi yuklatilgan.

Naqd pul muomalasini tartibga solish to'g'risidagi ushbu Qaror korxona, tashkilot va muassasalarda kassa muomalalarini yuritishda talaygina yangiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, ish haqi, mukofot, xizmat safari xarajatlari uchun pul mablag'lari berilishining elektron kartochka tizimiga o'tilishi kassa muomalalarida hujjatlar oqimining kamayishiga olib keladi. Xususan, pul mablag'lari berilishida kassa chiqim orderlari rasmiylashtirilmasdan, balki yagona hujjat - to'lov qaydnomasining to'ldirilishi kassa muomalalari ishini engillashtiradi.

Hozirgi kunda amaliyotda buxgalteriya hisobida valyuta muomalalarini aks ettirish O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2001 yil 7 noyabrda chiqarilgan № 119 sonli «Chet el valyutasidagi muomalalarni buxgalteriya hisobi, statistik va boshqa hisobot turlarida aks ettirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq amalga oshirilmoqda. Ushbu Nizomga muvofiq valyuta mablag'lari, qiymatliklari va chet el valyutasida amalga oshirilgan muomalalar xo'jalik muomalasi amalga oshirilgan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursiga muvofiq aks ettirilishi lozim.

Xususan, ularga quyidagilar kiradi:

A) kassadagi valyuta mablag'lari, bankdagi depozit va ssuda hisobvaraqari, akkreditivlar, valyutadagi ssuda qarzlari;

B) chet el valyutasidagi debitorlik va kreditorlik qarzlari;

V) imzolangan shartnomalar bo'yicha keltirilgan tovar- moddiy qiymatliklarni bojxona-yuk hujjatlari rasmiylashtirilgan sana bilan kirim qilinishi;

G) bojxona to'lovlarini amalga oshirish;

D) chet el valyutasida ifodalangan pul hujjatlari;

E) chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar;

Buxgalteriya hisobida valyuta mablag'larini baholash xorijiy valyutalarning so'mdagi ekvivalentini aniqlash orqali amalga oshiriladi. So'mdagi ekvivalent xorijiy valyutani valyuta kursi asosida qayta hisoblash (valyuta ayirboshlash) yo'li bilan aniqlanadi. Bunday qayta hisoblash algoritmi quyidagilardan iborat:

- xorijiy valyutani so'mga qayta hisoblashda foydalanish lozim bo'lgan kurs turini izchillik bilan aniqlash;

- qayta hisoblashni amalga oshirish kerak bo'lgan sanani aynan tenglashtirish;

- hisoblashni amalga oshirish;

- kursdagi farqni hisoblab chiqish va hisobga olish.

Valyuta kursi – boshqa milliy yoki xalqaro valyutalarning so'mda ifodalangan narxidir. U kimoshdi savdolarida, birjalar, banklararo bozorda, tijorat banklari hamda boshqa yuridik shaxslar va fuqarolar valyutani sotganlarida yoki xarid qilganlarida, ya'ni ichki bozorda talab hamda taklif asosida yuzaga keladi.

O'zbekistonda kurslarning quyidagi asosiy turlari qo'llaniladi:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi (rasmiy kurs);

- tijorat banklarida naqd valyutani xarid qilish va sotish kursi;

- kimoshdi savdolari kursi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi davlat byudjeti kirimlari va chiqimlarini, davlatning korxonalar, tashkilotlar va fuqarolar bilan to'lov-hisob-kitob munosabatlarining barcha turlarini hisoblashda, soliq solishda va buxgalterlik hisobi uchun foydalaniladi.

Milliy so'mga nisbatan rasmiy kurs belgilanmaydigan valyutada muomalalarni amalga oshirish ikki bosqichda o'tkaziladi. Olingan yoki to'langan valyutani oldin ayirboshlanadigan valyutaga (AQSh dollari, evro va boshqalarga) ana shu valyutalarning butun jahon tomonidan tan olingan xalqaro tashkilotlar (Reyter axborot agentligining valyuta-moliya xizmati) e'lon qiladigan kurs munosabatlari asosida o'tkaziladi. Shu yo'l bilan ayirboshlanadigan valyutada hosil qilingan summa umumiy belgilangan tartibda so'mga qayta hisoblanadi.

Hozirda O'zbekiston Respublikasida valyuta kursi o'zgarib turadi. Shu bois xorijiy valyutani so'mga almashtirish (yoki aksincha) muomalasini bajarishda qaysi kunning kursidan foydalanish lozimligini aniqlab olish kerak.

Umumiy qoidaga ko'ra, qayta hisoblash muomala amalga oshiriladigan kundagi kursdan foydalanib bajariladi. Masalan, bankdagi valyuta hisobvarag'iga

mablag' yozish yoki undan o'chirishda bu maqsad uchun muomala amalga oshiriladigan kunda, bankning valyuta hisobidan ko'chirmasida ko'rsatilgan sanada amalda bo'lgan kursdan foydalaniladi. Aynan shu summa mablag'lar kirimi va chiqimi sifatida hisobga qabul qilinishi zarur.

Amaliyotda ko'pincha xo'jalik muomalasi amalga oshiriladigan sanani aniqlash murakkab bo'ladi. Quyida keltirilgan misol xorijiy firmadan tovar xarid qilishi xo'jalik muomalasiga turli sanalar va ularga muvofiq ayirboshlash kurslari ahamiyatga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi (2.1-jadval).

2.1-jadval

Xorijiy firmadan tovarlar sotib olish muomalalari va valyuta kursi qaydi⁷

Sana	Muomalalar mazmuni	Muomala amalga oshirilgan sanada amalda bo'lgan AQSh \$.ning kursi (so'mda)
2 mart	Korxona tomonidan tovarga buyurtma berish	334,55
10 mart	Xorijiy firma tomonidan tovarni yuklab jo'natish va hisobdan chiqarish	336,03
13 mart	Korxona tomonidan hisobni olish	337,60
19 mart	Bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish	337,60
26 mart	Tovarni olish va kirim qilish	339,16
29 mart	Hisobni to'lash	339,94

Ayrim hollarda muomalani amalga oshirish sanasi qonun hujjatlari yoki me'yoriy hujjatlarda ko'rsatiladi. Amalda ko'p hollarda qayta hisoblash sanasi muomalaning iqtisodiy va yuridik mazmunidan kelib chiqib qabul qilinadi. Korxona valyuta muomalasi natijasida yuzaga kelgan mulkiy ob'ekt yoki majburiyatlarni tan olgan (hisobga qabul qilingan) kun ana shunday sana hisoblanadi va bu sana biror hisob-kitob-pul hujjatida ko'rsatilgan sanaga to'g'ri keladi. Masalan:

- hisob berish sharti bilan berilgan summalar bo'yicha xorijiy valyutada qarz yuzaga kelishi – korxona kassasidan summa berilgan kun (chiqim kassa orderi

⁷ Jadval muallif tomonidan tayyorlangan

sanasi);

- hisob berish sharti bilan ilgari berilgan summalar bo'yicha xorijiy valyutadagi qarzning to'lanishi - bo'nak hisoboti tasdiqlangan sana;
- eksportga jo'natilgan mahsulot uchun xorijiy valyutada qarz yuzaga kelishi (yuklab jo'natish fursati bo'yicha tushumni aniqlashda) – ajnabiy xaridorga hisobvaraq (schyot) taqdim etilgan sana;
- import bojxona bojini to'lash bo'yicha qarz yuzaga kelishi – bojxona yuk deklaratsiyasini bojxona rasmiylashtirishiga qabul qilinadigan kun;
- import bojxona bojini to'lash bo'yicha qarzning to'lanishi – boj to'lanadigan kun;
- bajarilgan mehnat majburiyatlari uchun xorijiy valyutada ish xaqi va boshqa to'lovlar yozilishi – daromad yozilgan oyning oxirgi taqvimiy kuni.

Xo'jalik muomalasi amalga oshirilgan sana bilan ana shu muomaladan kelib chiquvchi har qanday pul mavqei bo'yicha hisob-kitob sanasi o'rtasidagi davrda rasmiy kurs o'zgarishi natijasida kurs tafovutlari yuzaga keladi.

Valyuta aktivlari va passivlarini ular buxgalterlik hisobida qayd qilingan sanadagi va hisob-kitob amalga oshirilgan (pul mablag'lari kelib tushgan yoki to'langan) sanadagi kurs bo'yicha baholash o'rtasida farq kelib chiqadi.

Kursning o'zgarishiga qarab musbat va manfiy (kursdagi zararlar) kurs tafovutlari paydo bo'ladi.

Hozirgi kunda amaliyotda kurs farqini buxgalteriya hisobida aks ettirish yuqorida aytib o'tilgan Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu Nizomga muvofiq konsignant oldidaga kreditorlik qarzi konsignatsiyaga olingan tovarlar sotilgan kundagi Markaziy bank kursi bo'yicha hisobga olinadi. Tovar(ish, xizmat)larga narxni chet el valyutasidagi ekvivalentda belgilagan biroq hisob-kitoblarni milliy valyutada amalga oshiradigan xo'jalik sub'ektlari vujudga keladigan kurs farqini xo'jalik moliyaviy natijalariga moliyaviy faoliyatdan boshqa daromad va xarajatlar sifatida olib borishadi. Ushbu kurs farqi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromad va xarajatlari» qatorida aks etadi.

Bundan tashqari, ular moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettirilgan sof foyda bilan pul mablag'lari holati o'rtasidagi tafovutni tushunish uchun mazkur hisobotdan foydalanishlari mumkin. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shu davrda kompaniyaning investitsiya va moliyaviy faoliyatidan olingan samarani ham ko'rsatadi.

Yuqorida pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shaklining asosiy maqsadi haqida iqtisodchi olimlarning fikrini bilib oldik. Bundan tashqari, bu hisobotning boshqa maqsadlari ham mavjud, ya'ni keyingi maqsadlaridan biri - korxonaning hisobot davridagi joriy, investitsion va moliyaviy faoliyati to'g'risida ma'lumotlar berishdir. Korxonaning faoliyati haqidagi ma'lumotlarni boshqa hisobot shakllaridan ham olishimiz mumkin, lekin pul oqimlari to'g'risidagi hisobot korxonaning barcha faoliyatining summasini o'zida aks ettiradi, qaysiki, pul mablag'larining harakati bo'yicha.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shakli korxona boshqaruvi uchun kerak bo'lishi bilan bir qatorda tashqi foydalanuvchilar bo'lmish investorlar va kreditorlar uchun ham juda zarur. Korxona boshqaruvi ushbu hisobotdan korxona likvidililigini hisoblashda, dividendlar belgilashda, boshqa korxonalarga qo'shimcha sarmoyalar jalb etish yoki ma'lum bir dasturlarni moliyalashtirish haqida korxonaning umumiy holatini baholash uchun foydalanadi. Bir so'z bilan aytganda, korxona boshqaruvi uchun ushbu hisobot korxonaning qisqa muddatli kreditorlik majburiyatlarini qoplashga o'z pul mablag'larining etarliligi yoki etishmasliligini, to'lanadigan dividendlar miqdorini oshirish yoki pasaytirish haqidagi masalalarni, korxonaning investitsion va moliyaviy siyosatini rejalashtirishni aniqlash uchun kerak bo'ladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari investorlar va kreditorlar uchun quyidagi masalalarni o'rganishda juda ham kerak bo'ladi:

- * Korxona boshqaruvi pul mablag'lari harakatini boshqarishga qodirmi;
- * Kreditorlik majburiyatlarini qoplashga korxonaning hisob raqamida etarli darajada pul mablag'lari bor-yo'qligini o'rganish;
- * Dividendlar to'lash uchun;

* Qo'shimcha moliyalashtirish masalalarini o'rganish uchun.

Hammasidan ham muhimi ushbu hisobot ma'lumotlaridan foydalangan holda korxonaning sof foydasi bilan pul mablag'larining holati o'rtasidagi farqni tushunib olish mumkin bo'ladi.

II bob bo'yicha xulosa

Ma'lumki, amaliyotda naqd-pulsiz hisob-kitob shakllari orasida to'lov topshiriqnomasi keng qo'llaniladi. To'lov topshiriqnomalari blanklarda tuziladi, bitta bank muassasasi xizmat ko'rsatadigan uchta va undan ortiq oluvchiga o'tkazilganda esa banklarda yig'ma to'lov topshiriqnomalari tuziladi.

Mablag' to'lovchi va oluvchiga bitta bank muassasasi tomonidan xizmat ko'rsatiladigan hisob-kitoblari topshiriqnoma asosida uch nusxada taqdim etiladi. Birinchi nusxa to'lovchi bankida memorial order bo'lib xizmat qiladi, ikkinchi nusxa bir shahardagi o'tkazishlarda uning hisobvarag'idan yozish chog'ida oluvchiga yuboriladi, uchinchi nusxasi to'lovchiga berilib, topshiriqnoma qabul qilinganligi to'g'risida tilxat va bank muassasasi shtampi bilan beriladi.

Agar mablag' to'lovchi va oluvchiga bir shaharda joylashgan turli bank muassasalari xizmat ko'rsatayotgan bo'lsa, topshiriqnoma to'rt nusxada taqdim etiladi, ularning birinchisidan memorial order sifatida foydalaniladi, ikkinchi va uchinchi nusxalari to'lovdan so'ng mablag' oluvchining bankiga yuboriladi, bunda ikkinchi nusxa order bo'lib xizmat qiladi va bankda qoladi, uchinchi nusxa oluvchi hisobvarag'idan ko'chirmaga ilova qilinadi, to'rtinchi nusxa to'lovchiga tilxat va bank shtampi bilan birga qaytariladi.

Korxona buxgalteriyasida hisob-kitob varag'idagi pullar harakati bank ko'chirmalari bo'yicha «Hisob-kitob hisobvarag'i» nomli 5110–aktiv hisobvaraqda hisobga olinadi. Ushbu hisobvaraq bo'yicha kredit oborotlari 2-jurnal-orderda yoziladi, debet bo'yicha oborotlar esa turli jurnal-orderlarda aks ettiriladi. 2-jurnal-orderga 2-qaydnoma yuritiladi, unda 5110-«Hisob-kitob hisobvarag'i» hisobvaraq debetiga kiritilgan summalar hisobga olinadi.

Hisob-kitob varag'iga yozilgan va undan o'chirilgan summalarni hisobda aks ettirishdan oldin bank ko'chirmasi buxgalter tomonidan sinchiklab tekshiriladi va shundan so'ng bevosita hisob-kitob varag'idan ko'chirmada hisobvaraqlar korrespondentsiyalari tuziladi.

Bunda banklardagi korxonalarning hisob-kitob varaqlari passiv ekanini e'tiborda tutish zarur, binobarin, bank buxgalteriyasida pulning hisob-kitob varag'iga kelib tushishi hisobvaraqlarning krediti bo'yicha, hisobdan o'chirish esa uning debetida aks ettiriladi. Korxonalarda esa, aksincha, hisob-kitob varag'i aktiv hisoblanadi, shuning uchun pul mablag'larining hisob-kitob varag'ida ko'payishi debet bo'yicha, kamayishi esa kredit bo'yicha aks ettiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faqat milliy valyuta – so'mdan emas, balki har xil xorijiy valyutalardagi pul mablag'laridan foydalanmoqda va muomalalarni amalga oshirmoqda. Shu munosabat bilan valyuta boyliklari va muomalalari buxgalteriya hisobi ob'ektiga aylanmoqda.

Valyuta muomalalarining buxgalteriya hisobi:

- valyuta muomalalari korxona faoliyatining tashkil etuvchilari sifatida aks ettirilishini;
- korxonaning haqiqiy valyuta ahvoli aniq aks ettirilishini;
- valyuta bitimlarining qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi, valyuta boyliklarining borligi, ularning bus-butun saqlanishi va to'g'ri foydalanilishi ustidan nazoratni ta'minlashi lozim.

Hozirgi kunda amaliyotda kurs farqini buxgalteriya hisobida aks ettirish yuqorida aytib o'tilgan Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu Nizomga muvofiq konsignant oldidagi kreditorlik qarzi konsignatsiyaga olingan tovarlar sotilgan kundagi Markaziy bank kursi bo'yicha hisobga olinadi. Tovar(ish, xizmat)larga narxni chet el valyutasidagi ekvivalentda belgilagan biroq hisob-kitoblarni milliy valyutada amalga oshiradigan xo'jalik sub'ektlari vujudga keladigan kurs farqini xo'jalik moliyaviy natijalariga moliyaviy faoliyatdan boshqa daromad va xarajatlar sifatida olib borishadi.

III BOB. BANKDAGI SCHYOTLAR BO'YICHA MUOMALALAR AUDITINI TASHKIL QILISH HAMDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Bankdagi schyotlar bo'yicha muomalalar auditining xususiyatlari

Bozor munosabatlarini qaror toptirishda o'ziga xos yo'lni tanlab olib, jadal sur'atlar bilan dadil odimlar ekan, o'z-o'zidan ma'lumki bozor infratuzilmasining unsurlari, avvalambor, auditorlik firmalari faoliyatining o'zimizga xos, milliy standartda ishlab chiqarish zaruriyati tug'iladi. Shu bilan birgalikda bozor munosabatlarini jadallashtirishda respublikamizning jahon bozoriga chuqurroq integratsiyalashuvi iqtisodiy islohotlarni rivojlantirishni, iqtisodiy munosabatlarni yanada kengroq amalga oshirish uchun auditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirishni ham taqozo qilmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin ilgarigi iqtisodiy tizim o'rniga jahon standartlariga mos demokratik huquqiy davlatni barpo etish modeli tanlab olindi. Shuning uchun ham o'tish davrida huquqiy asoslarni shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, davlat mulkiga asoslangan mulkchilik shaklini isloh qilish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyot negizini yaratish masalasi ustuvor yo'nalish sifatida qabul qilindi.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy sharoitlari, tegishli qonun va qarorlar asosida ko'p ukladli iqtisodiyotni va raqobat muhitini shakllantirishning tashkiliy shart-sharoitlarini vujudga keltirish, deb belgilanganligi sababli, bozor infratuzilmasining asoslarini yaratishda aynan qonuniy negizlarga tayanildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida mamlakat iqtisodiyotida yangi muammolar yuzaga keladi. Respublikamizdagi bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari va uning keyingi bosqichlarida ustuvor yo'nalishlarning belgilanishi, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy hayotni, jumladan iqtisodiyotni erkinlashtirish mulkdorlar sinfini tashkil qilishdan kelib chiqqan holda auditorlik faoliyatiga muhtojlik seziladi.

Ma'lumki, auditorlik faoliyati muayyan korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati haqqoniy aks ettirilganligiga guvohlik beradi. Auditorlik tekshiruvi, odatda, korxonaning butun faoliyatini hamda barcha ob'ektlarini, shu jumladan, pul mablag'lari auditini ham qamrab oladi.

Ma'lumki, korxonaning pul mablag'lari korxonaning rejalashtirilgan aylanma mablag'lariga kiradi. Demak, korxonaning rejalashtirilgan aylanma mablag'lardan noto'g'ri foydalanishi korxonaning to'lov qobiliyati muvozanatini yo'qotadi. Pul mablag'larining saqlanishi va ulardan oqilona foydalanishni nazorat qilish bu borada muhim rol o'ynaydi. Chunki pul mablag'larining barqarorligini oshirish davlat ahamiyatiga molik ishdir. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida nazoratning yangi zamonaviy shakllari tashkil qilinishi zarur. Shunday nazoratning zamonaviy shakllaridan biri auditorlik nazoratidir. Auditorlik tekshiruvi va nazorati aynan xalqaro andozalarga javob beradi. Ushbu masalaning yana bir muhim jihati shundaki hech qanday chet ellik investor auditorlik tekshiruidan o'tmagan va auditorlik hisoboti bilan tasdiqlanmagan moliyaviy hisobotni o'qimaydi yoki unga ishonchsizlik bilan qaraydi. Shunday ekan pul mablag'larini audit iqtisodiy jihatdan ham muhimdir.

Pul mablag'larini tekshirishda auditor asosiy e'tiborni kassa muomalalarining auditiga qaratishi lozim. Kassa muomalalarini tekshirishning asosiy vazifasi pul mablag'lari va qimmatbaho qog'ozlarning, qat'iy hisobdagi blankalarning saqlanishini taminlash darajasini, kassa muomalalarini tartibiga rioya qilinishini, kassa muomalalarining o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirilishini hamda bu muomalalarning buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishi, kassa intizomiga rioya qilinishi va kassa joriy nazorati ahvolini aniqlashdir.

Korxona va tashkilotlar asosiy hamda kapital qo'yilmalar faoliyatiga mo'ljallangan pul mablag'larini ularga xizmat qiluvchi bank bo'linmalarida saqlashlari lozim. Bankdagi hisobvaraqlarning ochilishi tartibi va naqd pulsiz hisob-kitob muomalalarini o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maxsus me'yoriy ko'rsatmalariga asosan amalga oshiriladi.

Bu funktsiyalarni bajarish, avvalo, xo'jalik rahbari va bosh buxgalterga tegishlidir. Bankdagi hisobvaraqlarni ochish, mablag'lardan foydalanishni tashkil etish ularning vazifasidir. Bundan tashqari auditorlar orqali pul mablag'laridan foydalanishni alohida tekshiruvi o'tkazilishi ham maqsadga muvofiqdir. Bunga auditor oldiga quyidagi asosiy vazifalar qo'yiladi:

- pul mablag'larining haqiqiy holatini va ulardan qanday foydalanganligini tekshirish;
- xo'jalikning to'lov va moliyaviy intizomga rioya qilishini tekshirish;
- pul mablag'larini xo'jalikka kirim qilinishi, saqlanishi va ularning sarflanishi bilan bog'liq bo'lgan muomalalar ustidan nazorat olib borish; bunda amal qilinadigan qonun va qoidalarni buzilishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Pul mablag'lari harakati bo'yicha xo'jalik muomalalarni auditining asosiy vazifalaridan yana muhimlari bo'lib quyidagilarni aniqlashi lozim:

- tovarsiz hisobvaraqlar va boshqa noqonuniy muomalalar bo'yicha bo'naklar to'lovlari noto'g'ri o'tkazilmaganligini (tekshirilayotgan korxonaga taalluqli bo'lmagan boshqa tashkilotlarning sotib olgan tovarlari va xizmatlari bo'yicha hisobvaraqlarga xizmat ko'rsatish tartibida valyuta o'tkazilganligi va hokazo);
- tovar-moddiy boyliklarni mavsumiy to'plashga, bajarilgan ish uchun buyurtmachilarning to'lanmagan hisobvaraqlari va hokazo bo'yicha bank ssudalaridan to'g'ri va o'z vaqtida foydalanilayotganligini, ssuda olish uchun taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligi.

Respublikamizdagi bank hisobvaraqlarida bo'ladigan barcha muomalalarni amalga oshiradigan korxona va tashkilotlar mol etkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisob-kitoblarni naqd pulsiz amalga oshiradilar. Amalda naqd pulsiz hisob-kitobining turli shakllari qo'llaniladi. Hisob-kitobning u yoki bu shaklidan foydalanish korxonalar o'rtasida tuzilgan shartnomada kelishib olinadi. Bunda auditorlarning vazifasi yuqoridagi hisob-kitoblarni har qaysisidan foydalanishning mavjud tartib-qoidalariga amal qilinishini, hisob-kitoblarni to'g'ri hujjatlashtirilishini va har bir xarajatlar hujjat rekvizitlari bir-biriga mos kelishini

tekshirib chiqadi hamda kerakli xulosalar beradi, kamchiliklar yuzasidan maslahatlar beradi.

Hozirda respublikamizda hisob-kitobning asosiy foydalaniladigan shaklidan biri bo'lib akkreditiv hisoblanadi. Chunki bu hisob-kitob turi chet el korxonalari uchun ham, O'zbekiston korxonalari uchun ham juda qulaydir. Shuning uchun auditorlar oldida turgan muhim vazifalardan biri akkreditiv shaklidan to'g'ri foydalanganlikni, hisob-kitob shakli o'z vaqtida amalga oshirilganligini hamda to'g'ri hujjatlashtirilganligini aniq tekshirib chiqish va shu bilan birga yo'l qo'yilgan kamchiliklar yuzasidan tegishli maslahatlar berish hisoblanadi.

Bankdagi hisob-kitob, valyuta hisobvarag'i, maxsus va yo'ldagi o'tkazmalarni audit qilishda kuydagi hujjatlar manba bo'lib xizmat qiladi:

- bankdagi hisob-kitob, valyuta hisobvaraqlari va maxsus hisobvaraqlardan ko'chirmalar kassir hisobotlari;

- qaydnomalar, jurnal-orderlar, pattalar, chek koreshoklari, to'lov-talabnoma topshiriqnomalari, to'lov topshiriqnomalari va boshqalar.

Audit davomida auditor:

- chek daftarini saqlash va undan foydalanish tartibiga rioya qilinishi;

- bekor qilingan va foydalanilmagan chek varaqlarining miqdorini, kassa va bank muomalalari hisobini olib boruvchi shaxslarning bevosita bankdan pul olish hollari bo'lgan-bo'lmaganligini;

- qalbaki bank moliyaviy hujjatlarning tuzilishi, bankdagi har xil hisobvaraqlardan ko'chirmalardagi raqamlarning pul mablag'larini o'zlashtirish maqsadida qalbaki to'g'rilash xollari bo'lmaganligiga ishonch hosil qilib, bankdagi hisobvaraqlardan ko'chirma bilan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari o'rtasidagi farqlar yoki noaniq tuzatishlarni auditor bank muassasida ham tekshirishi lozim.

Pul muomalalari bo'yicha bankdagi schetdan ko'chirmaga ilova qilinadigan hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishini, ularda bank muassasasining muxri, sana va bank xodimining imzosi borligi tekshirilishi, birlamchi hujjatlarda ko'rsatilgan

muomalalarning qonuniyligini aniqlash kerak. Buning uchun bank muomalasi mazmunining kodini bilish lozim.

Olingan moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar va xizmatlar uchun hisobvaraqlarni to'lash bo'yicha pul hujjatlarni tekshirishga olingan moddiy boyliklarning o'z vaqtida va to'la kiringa olinganiga hamda ish va xizmatlarning dalolatnoma bilan qabul qilinganiga ishonch hosil qilish kerak. Pul mablag'lari hisobvarag'idan xarajatlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlarga, kelgusi davr xarajatlari hisobvarag'iga, zararga o'tkazilgan summalarni tekshirishda, ulardan ba'zi birlarini undirib olish zaruriyati yo'qligini, masalan, obuna vaqtida korxona faoliyatiga kerak bo'lmagan ro'znoma va jurnal uchun pul o'tkazish hollarini aniqlash lozim. Kreditorlik qarzini to'lash uchun o'tkazilgan pul muomalalarining asosli va o'z vaqtidaligini tekshirish lozim.

Chet el valyutasi bo'yicha muomalalarni audit qilishda naqd pul berilishining va boshqa korxonaga, xorijga o'tkazilishining asosli ekanligini aniqlash zarur. Respublika ichida hisoblashishlar Markaziy bank qoidalariga to'g'ri kelish- kelmasligini tekshirish lozim. Masalan, Respublika ichidagi va xorijdagi o'qishlar uchun o'tkazilib berilgan chet el valyutasi va milliy pulning korxonaga aloqasi bo'lmagan shaxslarga va noo'rin ishlarga o'tkazib berish hollari bo'lmaganligiga ishonch hosil qilish zarur. Valyuta kursining o'zgarishi to'g'ri ko'rsatilganligini aniqlash kerak.

Bankdagi maxsus hisobvaraqlarni tekshirishda (limitlashtirilgan) cheklangan va (limitlashtirilmagan) cheklanmagan chek daftarchalari bilan amalga oshirilgan muomalalarni tekshirishda daftarchadagi qoldiqning bankdan olingan ko'chirma va buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridagi ko'rsatilgan summaga mos kelishini aniqlash kerak. Agar farq chiqsa, bank to'lamagan summa va uning sababi aniqlanadi. Zarur hollarda hisob-kitob muomalasi o'tkazilgan korxonadan muomalaning haqiqiyligini bilish mumkin.

Pul hujjatlarini tekshirishda auditor kassadagi pochta markalari, davlat poshlinasi markalari, veksel, sanatoriy va dam olish uylariga yo'llanmalar, o'z aktsiyalarining va o'zga korxonalardan sotib olingan aktsiyalarning miqdorini

ko'rib chiqadi. Aktsiyadorlardan sotib olingan o'z aktsiyalari bilan bog'liq muomalalarni tekshirishda ularning qonuniyligini va buxgalteriya yozuvlarining to'g'riligini, moliyaviy qonun va tartiblarga rioya qilinayotganini, ushbu sotib olingan aktsiyalardan foyda olinayaptimi yoki foyda olinmayaptimi, foyda olishda korxona o'z huquqini himoya qila olishi ko'rib chiqiladi.

3.2. Bankdagi schyotlar bo'yicha muomalalar auditini takomillashtirish masalalari

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan barcha sohalarida bilan birga audit sohasida ham islohotlar olib borilmoqda. Bu borda xalqaro andozalarga asoslangan O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari qabul qilindi. Mazkur standartlar O'zbekistonda hisob yuritish tizimini belgilab beradi.

Shu bilan birga xalqaro andozalarga asoslangan O'zbekiston Respublikasi audit milliy andozalari ham qabul qilindi. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahriri esa ushbu sohada olib borilgan islohatlarni mantiqiy davomi bo'ldi. Biroq shuni tan olishimiz kerakki, bu sohada mukammal darajaga erishish uchun mehnat va vaqt talab etiladi. Sababi auditorlik faoliyati bo'yicha chuqur tajriba va tarixga ega g'arb davlatlarida ham auditorlik faoliyatini yangi qirralari, amaliyotda avval uchramagan va qonuniy hujjatlarda aks etmagan holatlar haligacha uchrab turibdi.

Bugungi kunga kelib pul mablag'lari auditini ancha takomillashtirdi. Ayniqsa, kassa muomalalari auditining yaxshi yo'lga qo'yilganligi tahsinga sazovordir. Biroq pul mablag'lari auditining hozirgi kunda ba'zi-bir muammolalari mavjud. Ushbu muammolar, eng avvalo, valyuta mablag'lari auditida uchramoqda.

Ma'lumki, valyuta muomalalari uchraydigan korxonalarni aksariyati tashqi iqtisodiy faoliyatni ishtirokchisi ekan, ulardagi auditorlik nazorati va tekshiruvi ham xalqaro talabga javob berishi majbur bo'ladi.

Valyuta muomalalari auditini xalqaro darajada tashkil qilish uchun, avvalambor, audit jarayonini talab darajasida tashkil qilish lozim.

Valyuta muomalalari auditida auditorlar o'z e'tiborlarini korxona olgan chet el valyutasidagi kreditiga qaratishlari lozim. Ushbu masala hozirgi kunda juda muhim hisoblanishini asosiy sababi xukumatimiz olib borayotgan iqtisodiy siyosati bilan ham bog'liqdir. Ya'ni korxona olayotgan krediti hisobiga raqobatbardosh eksportga yo'naltirilgan tovar ishlab chiqarishi va kreditni qoplashni o'z valyuta mablag'lari hisobiga amalga oshirishi lozim. Shuningdek korxonaning valyutadagi debitorlik qarzlarini auditiga ham jiddiy e'tibor qaratishi lozim.

Ma'lumki, auditning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotning haqqoniyligini tasdiqlash hisoblanadi. Moliyaviy hisobotning haqqoniyligiga esa, o'z navbatida, pul mablag'larining buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishi ta'sir ko'rsatadi. Amaliyotda korxona buxgalterlari foydani bekitish maqsadida noto'g'ri korrespondentsiya berish hollari uchray turadi.

Auditor tekshirish jarayonida, albatta, o'z ishini hujjatlashtirishi lozim. Ushbu talab O'zbekiston Respublikasi milliy audit andozalari qo'yilgan bo'lib, №6 AMA muvofiq auditor olgan ma'lumotlarini hujjatlashtirishi, ya'ni tegishli tarzda rasmiylashtirilgan ish hujjatlarida aks ettirmog'i lozim. Ushbu andozaning 8-moddasiga muvofiq ish hujjatlariga quyidagilar kiradi:

- audit o'tkazish reja dasturlari;
- auditorlik tashkiloti tomonidan qo'llanilgan uslublarni va ular natijalarini mazmuni;
- xo'jalik sub'ektining tushuntirish, izoh va arizalari;
- xo'jalik sub'ektini hujjatlarini nusxalari, jumladan fotonusxalari;
- xo'jalik sub'ektini buxgalteriya hisobini tashkil qilinishi va ichki nazorat tizimini tuzilishini batafsil bayoni;
- auditorlik tashkilotini tahliliy hujjatlari;
- boshqa hujjatlar.

Valyuta muomalalari auditida valyuta kassasini tekshirishda auditor quyidagi ish jadvalidan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'lar edi:

3.1-jadval

**Valyuta kassasini audit qilishda kurs farqini to'g'ri hisoblanganligini
tekshirishdagi ish jadvali⁸**

Sana №	So'mning dollarga nisbatan kursi	Berilgan, kassadagi qoldiq		Audit natijasi bo'yicha so'mda	Chetlashis h (+), (-)	Ko'rsatilishi lozim	
		dollar	so'm			7	8
1	2	3	4	5	6	7	8
01.yanv	686,9	1000	686900	686900			
08.yanv	688,18	1000	680000	688180	8180	71	80
01.fev	693,12	250	173280	173280			
10.fev	694,83	1500	1040245	1042245	2000	50,2	80
Jami	X	X	2580425	2590605	10180	X	X

Xalqaro amaliyotda auditor valyuta mablag'larining auditida ichki nazorat tizimini testlar yordamida baholash muhim o'rin tutadi. Shu sababdan mamlakatimizda o'tkazilayotgan auditorlik tekshiruvlarida ham testlardan foydalanish audit jarayonini takomillashishiga omil bo'lar edi. Quyida pul mablag'lari hisobvaraqlari bo'yicha amalga oshirilgan muomalalarning nazoratini tekshirish bo'yicha namunaviy testlar to'plamini keltiramiz:

3.2-jadval

**Pul mablag'lari hisobvarag'lari bo'yicha muomalalarni audit qilishdagi
namunaviy testlar to'plami**

№	Mazmuni	Javoblar
I. Nazoratning amalga oshirilishi.		
1.	Bosh buxgalter har kuni bank ko'chirmalarini tekshiradimi?	
2.	Bank ko'chirmalari bilan unga ilova qilingan hujjatlar o'xshashligi tekshiriladimi?	
3.	Bosh buxgalter bankdan olingan pul mablag'ini to'la kirim qilinishini tekshiradimi?	
4.	Banklarda boshqa hisobvaraqlar ochilganmi?	
II. Haqiqiylik.		
5.	Seyfda rahbarlar tomonidan avvaldan imzolangan to'lov talabnomalari saqlanadimi?	
6.	Valyuta xaridi bo'yicha, akkreditivlar bo'yicha, valyuta olish bo'yicha arizalar va to'lov talabnomalari ro'yxatga olinadimi?	
7.	Shartnomalar nusxalari buxgalteriyada mavjudmi va chet ellik sheriklarga to'lov shartnomalar asosida amalga oshiriladimi?	
III. Ruxsat olish.		
8.	Bank muomalalariga bosh buxgalter va korxona rahbaridan tashqari ularning o'rinbosarlari tomonidan sanktsiya beriladimi?	
9.	Mol etkazib beruvchilarga avvaldan to'lanadigan hisobvaraqlarga raxbarning ruxsat beruvchi imzosi qo'yiladimi?	
IV. Turlanishi.		
10.	Korxonada vujudga keladigan va ko'p qo'llaniladigan muomalalar bo'yicha korrespondentsiyalar ishlab chiqilganmi?	
V. Hisob.		
11.	Bank ko'chirmalari buxgalteriya hisobida har kuni aks Etitirilib, qayta ishlanadimi?	

⁸ 2-3 jadval muallif tomonidan tayyorlandi

Valyuta muomalalarini auditini takomillashtirishdagi yana bir muhim masala auditni tashkil qilishdan avval uning dasturini ishlab chiqish va shu dastur asosida ishni olib borishdan iboratdir. Quyida valyuta hisobvaraqlaridagi pul mablag'larini harakatini auditdan o'tkazish bo'yicha maxsus dasturni namunaviy shaklini amaliyotda qo'llash, fikrimizcha, yaxshi samara beradi.

3.3-jadval

Valyuta hisobvarag'laridagi pul mablag'larini harakatini auditdan o'tkazish dasturi⁹

№	Dasturga kiritilgan savollar	Axborot manbai	Izoh (qo'llaniladigan uslublar)
1.	Bankdan olingan va kirim qilingan valyutani tekshirish	Bank ko'chirmalari kassir xisoboti №2 jurnal order №1 qaydnoma	Kuzatish
2.	To'lov talabnomasi va boshqa hujjatlardagi yozuvlar bank ko'chirmasidagi yozuvlarga mos kelishi	Bank ko'chirmalari, ilova qilingan hujjatlar	Tasdiqlash, kuzatish
3	Import qilingan va to'langan tovarlarni to'la kirim qilinganligi	Ko'chirmalar tovarni kirim hujjatlari	Tanlanma, tekshirish
4.	QQS va bojxona bojarining o'z vaqtida to'lanishi	Bank ko'chirmalari, to'lov talabnomalari	Kuzatish, tekshirish
5.	Valyuta xaridining maqsadga muvofiqligi va hisobda to'g'ri aks ettirilishi	Bank ko'chirmalari, xarid uchun ariza	Tasdiqlash, kuzatish
6.	Valyuta mablag'larini saqlaganligi uchun bank foizlarini o'z vaqtida va to'la hisoblanishi	Bank bilan shartnoma, bank ko'chirmalari	Tasdiqlash, kuzatish
7.	Kurs farqini to'g'ri hisoblangan ligini tekshirish	Ko'chirmalar	Qayta hisoblash
8.	Valyuta hisobvarag'i qoldiqlarini so'mdagi ekvivalentini to'g'ri hisoblanganligini tekshirish	Bank ko'chirmalari	Qayta hisoblash
9.	Chet ellik mol etkazib beruvchilar va vositachilarga to'langan summalarning to'g'riligi va maqsadga muvofiqligini tekshirish	Olingan tovarlar bo'yicha hisob-fakturalar, to'lov talabnomalari, shartnomalar	Kuzatish, tasdiqlash
10.	Akkreditivlarni qo'llashning maqsadga muvofiqligi va uning shartnomada ko'rsatilganligini tekshirish. Uning samaradorligini baholash	Shartnomalar va akkreditivga arizalar	Tasdiqlash, tahliliy choralar

⁹ Jadval muallif tomonidan tayyorlangan

Valyuta muomalalarini auditida amaliyotda uchrab turadigan kamchiliklardan biri bu korxonani valyutadagi kreditorlik va debitorlik qarzlari qayta baholashda buxgalterlar tomonidan kurs farqining noto'g'ri hisoblanishi va buxgalteriya hisobida noto'g'ri etishi bilan bog'liqdir. Amaliyotda eng ko'p uchraydigan kamchiliklardan biri bu kurs farqini aks ettirishda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining №119 Nizomini tushunmaslikdan kelib chiqadi. Xususan, ushbu Nizomga muvofiq debitorlik qarzlari tufayli vujudga keladigan kurs farqlari yo «Moliyaviy faoliyatning daromadlari», «Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar» hisobvaraqlariga yoki «Kelgusi davr xarajatlari», «Kelgusi davr daromadlari» hisobvaraqlariga olib borilishi kerak.

Ushbu korrespondentsiyalarni farqi shundaki, korxona agar tovar (ish, xizmat) narxini chet el valyutasida belgilasa, lekin to'lovni so'mda amalga oshirsa, u to'lov amalga oshirilmasa ham hisobot tuzayotganda kurs farqini «Moliyaviy faoliyatning daromadlari», «Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar» hisobvaraqlariga olib borishi lozim bo'ladi. Buning natijasida ijobiy kurs farqi olinmasidan avval soliq bazasini oshiradi. Agar korxona to'lovni faqat chet el valyutasida qabul qilsa u holda kurs farqi «Kelgusi davr xarajatlari» va «Kelgusi davr daromadlari» hisobvarag'lariga olib borilishi kerak. Buning natijasida esa kurs farqi faqat qoplanganidan keyingina soliq bazasiga kiritiladi. Tabiiyki bu holda agar debitorlik qarzi qoplanmasa, kurs farqi ham daromad sifatida tan olinmaydi.

Yuqorida keltirilgan masalalardan shu narsa ayon bo'lmoqdaki, korxona valyuta muomalalarini ustidan samarali nazorat va auditni ta'minlash uchun korxonalarda ichki nazorat ishini takomillashtirish va valyuta muomalalarini nazorat qilish uchun alohida ichki audit tizimini tashkil qilish lozim. Bundan tashqari o'tkaziladigan tashqi auditda ishni xalqaro darajada tashkil qilish lozim. Shuningdek korxonani chet el valyutasida olgan kreditini qoplash bo'yicha muomalalarni tekshirishda auditorlar ularni korxona o'z mablag'lari hisobiga qoplash imkoniyatini o'rganib va tahlil qilib baholashlari lozim bo'ladi.

III bob bo'yicha xulosa

Ma'lumki, auditorlik faoliyati muayyan korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati haqqoniy aks ettirilganligiga guvohlik beradi. Auditorlik tekshiruvi, odatda, korxonaning butun faoliyatini hamda barcha ob'ektlarini, shu jumladan, pul mablag'lari auditini ham qamrab oladi.

Ma'lumki, korxonaning pul mablag'lari korxonaning rejalashtirilgan aylanma mablag'lariga kiradi. Demak, korxonaning rejalashtirilgan aylanma mablag'lardan noto'g'ri foydalanishi korxonaning to'lov qobiliyati muvozanatini yo'qotadi. Pul mablag'larining saqlanishi va ulardan oqilona foydalanishni nazorat qilish bu borada muhim rol o'ynaydi. Chunki pul mablag'larining barqarorligini oshirish davlat ahamiyatiga molik ishdir. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida nazoratning yangi zamonaviy shakllari tashkil qilinishi zarur. Shunday nazoratning zamonaviy shakllaridan biri auditorlik nazoratidir. Auditorlik tekshiruvi va nazorati aynan xalqaro andozalarga javob beradi. Ushbu masalaning yana bir muhim jihati shundaki hech qanday chet ellik investor auditorlik tekshiruidan o'tmagan va auditorlik hisoboti bilan tasdiqlanmagan moliyaviy hisobotni o'qimaydi yoki unga ishonchsizlik bilan qaraydi. Shunday ekan pul mablag'larini auditi iqtisodiy jihatdan ham muhimdir.

Pul mablag'larini tekshirishda auditor asosiy e'tiborni kassa muomalalarining auditiga qaratishi lozim. Kassa muomalalarini tekshirishning asosiy vazifasi pul mablag'lari va qimmatbaho qog'ozlarning, qat'iy hisobdagi blankalarning saqlanishini taminlash darajasini, kassa muomalalarini tartibiga rioya qilinishini, kassa muomalalarining o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirilishini hamda bu muomalalarning buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishi, kassa intizomiga rioya qilinishi va kassa joriy nazorati ahvolini aniqlashdir.

Korxona va tashkilotlar asosiy hamda kapital qo'yilmalar faoliyatiga mo'ljallangan pul mablag'larini ularga xizmat qiluvchi bank bo'linmalarida saqlashlari lozim. Bankdagi hisobvaraqlarning ochilishi tartibi va naqd pulsiz hisob-kitob muomalalarini o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maxsus me'yoriy ko'rsatmalariga asosan amalga oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mana bir necha yildirki respublikamiz iqtisodiyoti bozor munosabatlari qonuniyatlari asosida rivojlanish yo'li tomon bormoqda. Mulkiy munosabatlardagi, boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar bizni ko'proq faoliyat samaradorligi haqida, resurslar tejami va iqtisodi haqida o'ylashga majbur qilmoqda.

Bozorning asosiy subektlari bo'lgan korxona va tashkilotlar yagona bitta maqsad asosida ishlamoqdalar, u ham bo'lsa, foyda olish va faoliyat samaradorligini oshirish. Bu jarayonda, albatta, pul mablag'laridan samarali foydalanish taqozo qilinadi.

Shuningdek, hozirgi kunda respublikamiz hukumati chet el investorlarini jalb etishda ko'p ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi, qo'shma tadbirkorlik va xorijiy kapitalni jalb qilish va ularga imtiyozlar berishga qaratilgan Prezident Farmonlari va bir qator qonunlar qabul qilingan. Ushbu hujjatlarning qabul qilinishi chet el sarmoyalarini jalb qilishni yanada jadallashtirib, bu sohada tub o'zgarish yasashi shubhasizdir. Shuningdek, ular xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy huquqlarini yanada kengaytirib, faoliyatini rag'batlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shularni inobatga olgan holda, quyidagi asosiy takliflarni kiritmoqchiman.

1. Ma'lumki, erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan mamlakatdagi mavjud makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda pul bozoridagi muvozanatni qaror toptirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda pul mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Zero, respublikamizda bozor munosabatlari qaror toptirilayotgan hozirgi sharoitda milliy valyuta - so'mning qadrini oshirish iqtisodiy islohotlar ikkinchi bosqichining asosiy vazifalaridan biri qilib belgilangan.

Milliy valyuta - so'mning xarid qobiliyatini ko'tarishda, eng avvalo, muomaladagi ortiqcha pul miqdorini qisqartirish hamda naqd pul aylanishini tezlashtirishga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Shu boisdan hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning ko'pchiligida ushbu masalaga alohida

urg'u berilmoqda. Xususan, pul muomalasini yanada takomillashtirish, naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini kengaytirish, bankdan tashqari muomalani qisqartirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 avgustdagi «Pul mablag'larining bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Bizning fikrimizcha, ushbu qarorning amaldagi ijrosini ta'minlash lozim lozim. Agarda yuqoridagi qaror o'z ijrosini topib, amaliyotda keng qo'llanilsa, respublikamizda amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosatini yanada chuqurlashtirgan bo'lar edi.

2. Ma'lumki, inflyatsiya asosan naqd pul oborotining sekinlashuvi natijasida yuzaga keladi. Iqtisodiy islohotlar ikkinchi bosqichining asosiy vazifalaridan biri - milliy valyutamiz qadrini ko'tarish hisoblanar ekan, asosiy e'tiborni naqd pul emissiyasini qisqartirishga qaratish lozim. Respublikamizda naqd pul muomalaga ish haqi va mukofotlar berish, nafaqalar to'lash, kommunal xizmatlar uchun haq to'lash va boshqa maqsadlar uchun chiqariladi. Ushbu maqsadlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishda asosan plastik kartochka tizimini keng qo'llash lozim. Zero, mamlakatimiz pul oborotida plastik kartochka tizimini joriy etish davr taqozosi bo'lib, bu tizim soliq to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olishda hamda inflyatsiyani jilovlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

3. Chet el valyutasida muomalalarni amalga oshiruvchi korxona va tashkilotlar o'zlarining valyuta tushumlaridan majburiy ravishda sotadigan qismini, ya'ni 50 foizini kamaytirishga harakat qilish kerak. Chunki majburiy ravishda sotiladigan valyutaning foizi qanchalik kam bo'lsa, korxona va tashkilotlar ixtiyorida shunchalik ko'p valyuta mablag'i qoladi. Bu esa, o'z navbatida, korxona va tashkilotlarning kengaytirishga hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga turtki bo'ladi.

4. O'zbekiston Respublikasi audit milliy andozasi №70-«Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot bo'yicha auditor xulosasi» andozasiga qo'shimcha ravishda xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgani kabi tushuntirish qismi mavjud auditorlik xulosasini amaliyotga kiritish menimcha maqsadga muvofiq bo'lardi. Sababi amaliyotda korxona moliyaviy hisoboti shakllanilayotganda chet el valyutasidagi

debitorlik qarzlari bo'yicha ijobiy kurs tafovutlari foyda shakllanishida muhim o'rin tutishi mumkin. Biroq qarzdor korxona bu qarzni to'lay olmasa, u korxonaga tabiiyki zarar olib kelishi mumkin yoki korxona kreditorlik qarzi bo'yicha salbiy kurs farqi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining №119 Nizomiga muvofiq korxona zarar bilan chiqmasligi uchun faqat olgan foydasi bilan qoplanadigan qismigina hisobdan chiqariladi va bu ham korxona moliyaviy natijasini shakllanishida muhim hisoblanadi. Shu sababdan bu holatlarda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar bu muhim, deb hisoblangan omillardan boxabar bo'lishlari uchun auditorlar o'z hisobotlariga tushuntirish qismini kiritishlari maqsadga muvofiq bo'lardi.

5. Valyuta tushumiga ega korxonalarda, xususan, turistik firmalar, xalqaro darajadagi mehmonxonalarda valyuta muomalalari ustidan samarali nazoratni ta'minlashda asosiy e'tiborni ichki auditorlar ishiga qaratmoq lozim. Demoqchimanki, ushbu turdagi korxonalarda valyuta muomalalari ustidan uzluksiz nazorat olib borishda ichki auditorlar xizmatidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bundan shu narsa ko'rinib turibdiki, korxona tashqi auditdan o'tayotganda, tabiiyki, tashqi auditorlar uchun ichki auditorlar ishini baholash va ular ishi natijalaridan foydalanish lozim bo'ladi. Bu esa shu turdagi korxonalarda ichki auditorlar ishini ham audit milliy andozalari asosida tashkil qilishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Meyoriy-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

I. Meyoriy-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston, 2008.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.-T.: “Adolat” 2008.

1.3.O'zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi” qonuni.2017 yil 13 aprelda qabul qilingan (yangi tahriri).

1.4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2017 yil 1 fevralda PQ-2750-sonli Qarori

1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son Farmoni.

1.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.02.1999 y. 54-son “Mahsulot (ish,xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom”.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi farmoni, 2017-yil 7-fevral, № PF-4947.

1.8. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002 yil 27 dekabrda “Moliyaviy hisobot shakllari va ularning to'ldirilishi bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida” gi 140-sonli buyrug'i.

1.9. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standartlari to'plami.

1.10. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T: «O'zbekiston» NMIU, 2016. -56 b.

1.11. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T: «O'zbekiston», 2017. - 104 b.

1.12. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017 yil

II. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar.

2.1. Алисенов А. С. Международные стандарты финансовой отчетности: учебник и практикум для академического бакалавриата. — 2-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 404 с.

2.2. Бочкарева И.И. Бухгалтерский учет. Учебное пособие. —М.: Проспект, 2006. 776 стр.

2.3. Волкова О.Н. Управленческий учет: учебник и практикум для академического бакалавриата. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 461 с.

2.4. Воронченко Т. В. Бухгалтерский финансовый учет. В 2 ч. Часть 1 : учебник и практикум для академического бакалавриата — М.: Издательство Юрайт, 2018. — 353 с.

2.5. Воронченко Т.В. Теория бухгалтерского учета: учебник и практикум для академического бакалавриата. — 2-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 284 с.

2.6. Донцова Л.В. Анализ финансовой отчетности. Учебник. —М.: Дело и Сервис, 2005. 366 стр.

2.7. Дмитриева И.М. Бухгалтерский учет: учебник и практикум. — 5-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 325 с.

2.8. Дмитриева И.М. Бухгалтерский учет с основами МСФО: учебник и практикум для академического бакалавриата. — 5-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 325 с.

2.9. Зылева Н.В. Бухгалтерский учет на предприятиях малого бизнеса: учебник и практикум. — М.: Издательство Юрайт, 2018. — 178 с.

2.10. Илышева Н.Н., Синянская Е.Р., Савостина О.В. Бухгалтерский учет: учебное пособие для вузов /под науч. ред. Л. В. Юрьевой. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 159 с.

- 2.11. Кондраков Н.П. «Бухгалтерский учёт, анализ хозяйственной деятельности и аудит». Учебник. М.: Перспектива, 2006 г. – 454 с.
- 2.12. Karimov A.A., Islomov F.R., Avloqulov A.Z. Xalqaro audit. Darslik. – T.: IQTOSOD MOLIYA, 2014. – 486 b.
- 2.13. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: G.Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. – 723 б.
- 2.14. Рябенская Т. Ю. «Бухгалтерская (финансовая) отчетность». Уч. пособие – М.: Юстицинформ, 2015г. – 217 с.
- 2.15. Сотиволдиев А.С. и др. Финансовый и управленческий учет: Учебник. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2012. – 432 с.
- 2.16. Трофимова Л.Б. Международные стандарты финансовой отчетности: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры. — 5-е изд., испр. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 242 с.
- 2.17. Уразов К.Б. Бухгалтерия молиявий ҳисоби. Ўқув қўлланма. – Самарқанд. СамИСИ, 2013.-228-бет.
- 2.18. Fayziev Sh.N., Dusmuratov R.D., Karimov A.A., Kuziev I.N., Avlokulov A.Z. Audit: Darslik – T.: Iqtisod Moliya-, 2015y. – 430 b.
- 2.19. Фельдман И. А. Бухгалтерский учет: учебник для вузов. — М. : Издательство Юрайт, 2017. — 287 с.
- 2.20. Xasanov.B va boshg. Boshqaruv hisobi. Darslik. Cholpon nomidagi NMIV, 2013. 254-b.
- 2.21. Хасанов Б.А., Хашимов А.А.. Бошқарув ҳисоби /Дарслик. – Тошкент, 2012 й., “Иқтисод-молия” нашриёти. - 308 б.
- 2.22. Камышанов П.И. Бухгалтерская финансовая отчетность: Составление и анализ. Учебное пособие. - М.: ОМЕГА, 2005. - 246 стр.
- 2.23. Fayziyev Sh., Dustmuratov R. va b. Audit. Darslik. – T. Iqtisod-Moliya, 2015 y. 536 b.
- 2.24. Internet saytlari
<http://www.gov.uz>. (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali)
<http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).

<http://www.ziyonet.uz> (Axborot ta'lim tarmog'i)

<http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari
milliy bazasi)

<http://www.bem.uz> (BEM trening sentri)